

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 91 (1690), 2026-yil 7-may, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON – SERBIYA: KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-may kuni tashrif bilan mamlakatimizga kelgan Serbiya Respublikasi tashqi ishlar vaziri Marko Jurichni qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchichning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni 2025-yil oktabr oyida oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada mustahkamlash istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Hukumatlar, parlamentlar, ishbiarmon doiralar darajasidagi muloqotlar faollashgani, gumanitar almashinuv kengayib borayotgani mamnuviyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash hajmini oshirish, mashinasozlik, farmatsevtika, kimyo sanoati, axborot texnologiyalari, qishloq xo‘jaligi, turizm va boshqa ko‘plab muhim tarmoqlarda keng ko‘lamli kooperatsiya dasturini tayyorlash masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Hamkorlikning iqtisodiy kun tartibini ilgari surish maqsadida joriy yilda Belgrad shahrida Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig‘ilishini o‘tkazishga kelishib olindi.

Uyushgan mehnat migratsiyasi, madaniyat va ta‘lim sohasidagi sheriklik masalalari ko‘rib chiqildi.

Tomonlar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, bo‘ljak oliy darajadagi uchrashuvlar rejasini muhokama qildilar.

O‘ZA

QURILISH SOHASIDA YANGI TARTIB JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida byurokratiyani qisqartirish va nazorat ishlari natijadorligini oshirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Qurilish sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar aholi uchun zamonaviy uy-joylar, ijtimoiy obyektlar va qulay infratuzilma yaratishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, qurilayotgan yangi uy-joylar xavfsiz, sifatli, ekologiya va shaharsozlik talablariga to‘liq javob berishi zarur.

Taqdimotda sohada davlat xizmatlarini soddalashtirish, ruxsat berish jarayonlarida byurokratiyani kamaytirish, qurilish obyektlari ustidan nazoratni raqamlashtirish va inson omilini qisqartirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, hozirda qurilishni boshlash uchun ruxsat olishda jami 8 ta hujjat talab etiladi. Bu jarayon ayrim hollarda 3 oydan 12 oygacha cho‘zilmog‘da. Shu bois, 2 ta hujjatni talab qilishni bekor qilish, yana 2 ta hujjatni esa raqamli integratsiya hisobiga shakllantirish taklif etildi. Natijada ariza berish va ko‘rib chiqish uchun ketadigan vaqt 7 barobar qisqaradi, buyurtmachilarning ortiqcha ovoragarchiligi kamayadi.

Yangi tartibga ko‘ra, loyihalashtirish ruxsatnoma va arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i berish jarayonlari yagona hujjatga birlashtiriladi. “ShaffofAI” tizimi orqali ushbu jarayon inson omilisiz, avtomatik tarzda amalga oshirilishi ko‘zda tutilmoqda. Buning natijasida 30 ish kunigacha davom etadigan jarayon to‘liq avtomatlashtiriladi.

Loyiha-qidiruv, qurilish-pudrat va ekspertiza tashkilotlarini litsenziyalashda ham yangi tartib joriy etiladi. Bugungi kunda ariza berishda 3 tadan 30 tagacha hujjatni ilova qilish talab etilib, qaror qabul qilish 14 ish kunigacha cho‘zilmog‘da. Taklif etilayotgan tizimda ma‘lumotlar elektron bazalar orqali avtomatik tekshiriladi, hujjat ilova qilish talabi bekor qilinadi. Litsenziyani rasmiylashtirish muddati 14 ish kunidan 5 daqiqagacha qisqaradi, qaror qabul qilish jarayoni 97 foizga tezlashadi.

Qurilish obyektlarini foydalanishga qabul qilish jarayoni ham soddalashtiriladi. O‘tgan yili bu borada berilgan 20 mingdan ortiq arizalar turli sabablarga asoslanib rad etilgan. Kamchiliklarni bartaraf etish uchun buyurtmachilar 1 oydan 3 oygacha vaqt sarflamoqda.

Endi davlat obyektlarini foydalanishga qabul qilishda talab etiladigan hujjatlar soni 3 tadan 1 taga qisqartiriladi. Texnik hamda mualliflik nazoratchilari xulosalari, muvofiqlik deklaratsiyasi va boshqa ma‘lumotlar raqamli tizimlar orqali shakllantiriladi. Bu esa obyektning qabul qilish muddatini 2 oydan 15 kungacha qisqartiradi.

Shu bilan birga, binoning mustahkamligi va yong‘in xavfsizligiga ta‘sir qilmaydigan arxitekturaviy yoki rejayiv o‘zgarishlar sabab obyektning foydalanishga qabul qilishni rad etish amaliyoti qayta ko‘rib chiqiladi. Bunday holatlarda zarur korrekturalar kiritilib, obyektning qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

Taqdimotda qurilish obyektlarini onlayn nazorat qilish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi.

Amaliyotda qurilish obyektlariga kuzatuv kameralarini majburiy o‘rnatish talabi mavjud emas. Shu bois, birinchi bosqichda qiyimat 3 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan ijtimoiy soha obyektlari, ko‘p qavatli uylar, yirik savdo va sanoat obyektlari, mehmonxona va turizm majmualariga kameralar o‘rnatish taklif etildi.

Bu orqali loyihadan o‘zboshimchalik bilan chetga chiqish holatlarini barvaqt aniqlash, qurilish maydonidagi ishchilar hisobini aniqlash, “konvert” usulida maosh to‘lash holatlarining oldini olish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va mehnat xavfsizligini ta‘minlash imkoniyati kengayadi.

Qurilishda texnik va mualliflik nazorati samaradorligini oshirish masalasi ham ko‘rib chiqildi. 2025-yilda texnik va mualliflik nazoratchilari obyektlarda 42 mingga kamchilikni qayd etgan bo‘lsa, inspektorlar keynchalik yana 250 mingdan ziyod qoidabuzarlikni aniqlagan.

Bu ayrim hollarda nazoratchilar faoliyati yetarlicha samarali tashkil etilmayotganini ko‘rsatadi.

Shu munosabat bilan “Shaffof qurilish” platformasida texnik va mualliflik nazoratchilarining reyestri va reyting tizimini joriy etish taklif qilindi. Ularning faoliyati masofadan monitoring qilinadi, ish yurituv hujjatlari elektron shaklga o‘tkaziladi. Reyting ko‘rsatkichi past bo‘lgan nazoratchilar qayta o‘qitishga yuboriladi, yaxshi natija ko‘rsatganlarning sertifikat muddati uzaytiriladi.

Qurilish materiallari sifatini nazorat qilishda ham ta‘sirchan mexanizmlar joriy etiladi. Obyektga kiritilgan har bir qurilish materiali nazorat.mc.uz platformasi orqali elektron ro‘yxatga olinadi, sifatini tasdiqlovchi hujjatlar majburiy ravishda tizimga yuklanadi. Sifatiz materiallardan foydalangan quruvchilarga nisbatan ma‘muriy javobgarlik belgilash taklif etildi.

Laboratoriya sinovlari bo‘yicha ham yangi yondashuvlar belgilanmoqda. Uzoq hududlardagi qurilish massivlarida sinovlarni o‘z vaqtida o‘tkazish uchun ko‘chma qurilish-sinov laboratoriyalarini tashkil etish taklif qilindi. Bu obyektlar qamrovini ikki barobar oshirish, sinov natijalarini tezkor aniqlash va standart talablariga rioya etilishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Taqdimotda noqonuniy qurilishlarning oldini olish masalasi ham atroflicha ko‘rib chiqildi. 1-aprel holatiga respublika bo‘yicha 3 ming 791 ta noqonuniy qurilish obyekti aniqlangan. Shundan 1 ming 933 ta sanoat zonalarini hududiga to‘g‘ri keladi. Ayrim obyektlarda yerga bo‘lgan huquq, loyihalashtirish ruxsatnoma, kengash yoki ekspertiza xulosalari mavjud emasligi aniqlangan.

Buning oldini olish uchun yerga oid huquq vujudga kelgan vaqtdan boshlab fuqarolar va yuridik shaxslarga qurilish sohasidagi qonun talablari bo‘yicha elektron eslatmalar yuborish, “Onlayn mahalla” va “Shaffof qurilish” tizimlarini integratsiya qilish, qonunchilikdagi obyektlarni ruxsatnomasiz qurilganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish taklif etildi.

Ko‘p kvartirali uy-joy fondini boshqarishda nazoratni kuchaytirish masalasi muhokama qilindi.

Qonunchilikda ko‘p kvartirali uylardagi to‘siq konstruksiyalarini o‘z boshimchalik bilan buzgan shaxslarga ma‘muriy choralarini tezkor ko‘rish mexanizmi yetarli emas. 2023-yilda bunday holatlar 563 ta bo‘lgan, 2025-yilda esa 2 ming 484 taga yetgan.

Ayniqsa, ekspluatatsiya muddati 50 yildan oshgan uylarda o‘zboshimchalik bilan rekonstruksiya qilish xavfli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Mamlakatimizda bunday ko‘p kvartirali uylar 15 ming 270 tani tashkil etadi. Shu bois, ularda toifani o‘zgartirish va rekonstruksiya qilishni cheklash, to‘siq konstruksiyalarni buzganlik uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri jarima qo‘llash vakolatini inspeksiya boshqarmasiga berish taklif etildi.

Kadrlar salohiyatini oshirish masalasi ham e‘tibor markazida bo‘ldi.

Toshkent, Namangan va Qarshi shaharlaridagi oliyog‘hularda Avstriyaning Vena va Italiyaning Sapiensa universitetlari bilan qo‘shma ta‘lim dasturlarini tashkil etish, istiqbolli kadrlarni rivojlangan davlatlarga stajirovkaga yuborish va ularning yangi bilim-ko‘nikmalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tizim yaratish vazifasi qo‘yildi.

Prezidentimiz sohadagi yangiliklar amaliyot bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi zarurligini ta‘kidlab, hududiy studiyalardagi sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning fikrlarini tingladi. Takliflarni ma‘qullab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA

JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A‘ZO BO‘LISH JARAYONINING BORISHI KO‘RIB CHIQLIDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishi borasida 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar va ushbu jarayonni jadallashtirish bo‘yicha 2026-yildagi vazifalarga bag‘ishlangan taqdimot bilan tanishdi.

O‘tgan yilda O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lish jarayoni doirasida ko‘p va ikki tomonlama muzokaralarda salmoqli natijalarga erishildi.

Xususan, O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishi bo‘yicha ishchi guruhning ikkita yig‘ilishi o‘tkazildi. Ularda 200 dan ortiq savollarga javoblar, 30 dan ziyod tashqi savdoga oid hujjatlar JST a‘zolariga taqdim etildi.

Shu bilan birga, ikki tomonlama tadbirlar doirasida 40 dan ortiq muzokaralar raundi olib borildi. 2025-yilning o‘zida 11 ta davlat bilan muzokaralar yakunlanib, bunday davlatlarning umumiy soni 33 taga yetdi.

JST a‘zolari tomonidan O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq jadal islohotlar amalga oshirilayotgani ijobiy e‘tirof etilmog‘da. Xususan, o‘tgan yilda 68 ta qonunchilik hujjati JST va xalqaro me‘yorlariga uyg‘unlashtirildi.

Jumladan, JST qoidalariga uyg‘unlashtirish doirasida intellektual mulkni ro‘yxatga olish jarayonlari soddalashtirilib, ushbu sohada qoidabuzarliklar uchun javobgarlik choralarini kuchaytirildi, eksport cheklovlarini bekor qilindi va shaffof mexanizmga ega eksport bojlari joriy etildi, ayrim mahsulotlar uchun minimal eksport narxlarini belgilash amaliyoti bekor qilindi.

Shuningdek, savdodagi texnik to‘siqlarni qisqartirish, sanitariya va fitosanitariya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida xavf

darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlarni majburiy davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning byurokratik tartibi o‘rniga sertifikatlashtirish joriy etildi, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi ustidan nazorat Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasiga o‘tkazildi va 14 ta oziq-ovqat texnik reglamentini bekor qilindi, 747 ta tovar pozitsiyasi bo‘yicha majburiy sertifikatlashtirish talablari tugatildi va ro‘yxat 27 foizga qisqartirildi.

Taqdimotda oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi va savdoni himoya qilish choralarini to‘g‘risidagi yangi qonunlarni qabul qilish, sanitariya, veterinariya va karantin sohasiga xavfni tahlil qilish, kuzatuvchanlik hamda ilmiy asoslanganlik tartibotlarini joriy etish holati ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari joriy yilda O‘zbekistonning JSTga to‘laqonli a‘zoliqini rasmiylashtirish bo‘yicha kompleks ishlarni sifatlilik amalga oshirish borasida ko‘rsatmalar berdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi qonunchilikni JST qoidalariga va xalqaro savdo standartlariga to‘liq muvofiqlashtirish ishlarini tizimli davom ettirish, JSTga a‘zo bo‘lish bo‘yicha ikki va ko‘p tomonlama muzokaralarni yakunlash hamda a‘zolikni rasmiylashtirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar belgilab olindi.

O‘ZA



Prezident tashrifidan so‘ng

FARG‘ONA – SHIJOAT, ISHTIYOQ VA FAROVONLIK MASKANI



“Dunyoning yetti mo‘jizasi” deb tanilgan shaharlar, sayyohlik markazlari haqida juda ko‘p eshitganmiz. Ular inson tasavvuri va topqirligining yorqin namunalari, mukammal me‘morchilik va muhandislik andozalari asosida qurilgan bilan jahon hamjamiyatini o‘ziga rom etib kelyapti.

Biz bugun o‘tmish tilimotlari emas, balki yangi O‘zbekiston tamaddunida ko‘z ochgan yangi shaharlar, unda qo‘nim topgan kishilar hayot tarzi haqida hikoya qilmoqchimiz.

Prezidentimiz shu yil 27-28-aprel kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, aholi farovonligi yo‘lida qilinayotgan ishlar bilan tanishdi. Yangi maralar belgilanib, mas‘ullarga topshiriq va ko‘rsatmalar berildi. Mana, o‘sha tashrifdan keyin bir necha kun

o‘tdi. Lekin hamon uning shukhi dillardan dillarga ko‘chib yuribdi. Farg‘onaliklar o‘zaro gurgunglarda Prezidentimiz tashrif, boshlangan yangi loyihalarni, umuman, bugungi yutuq va kelgusi rejalar haqida so‘zlashmoqda. Kimdir mamlakat yetakchisi Farg‘onaga oddiy odamlar bilan samimiy suhbatlashib, yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash uchun kelgan desa, boshqasi uning gapini to‘ldirib, bajarilgan ishlarning sarhisobi haqida so‘zlay ketadi.

► Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI XITOIY RAHBARIGA HAMDARDLIK BILDIRD

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xunan provinsiyasidagi sanoat korxonasida yuz bergan fojia oqibatida ko‘plab insonlar qurbon bo‘lgani va jiddiy jarohat olgani munosabati bilan Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zepingga hamdardlik bildirdi.

Davlatimiz rahbari vafot etganlarning oila a‘zolari va yaqinlariga sabr-toqat va bardamlilik so‘zlarini yo‘llab, jarohatlanganlar tez fursatda shifo topishini tiladi.

O‘ZA



INNOVATSION ISSIQXONALAR – OZIQ-DVQAT, IQLIM VA ENERGIYA XAVFSIZLIGINING STRATEGIK YECHIMI

Global iqtisodiyotda so‘nggi yillarda yuzaga kelayotgan tendensiyalar oziq-ovqat xavfsizligi masalasini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirmog‘da. Iqlim o‘zgarishi, energiya resurslari qimmatlashuvi hamda aholi sonining barqaror o‘sishi sharoitida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish masalasi endilikda an‘anaviy yondashuvlar doirasida hal etilishi mumkin emas.

Bu jarayonlar agrar tarmoqni texnologik jihatdan yangilash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va ishlab chiqarishni sanoat bosqichiga olib chiqishni taqozo etmog‘da.

Amaldagi “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qonun sohaning huquqiy bazasini mustahkamlab, energiya auditi va energiya menejmenti tizimlarini joriy etishning huquqiy asoslarini belgilaydi.

Prezidentimizning 2025-yil 8-oktyabrda “Issiqxona xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish va eksport hajmini ko‘paytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni sohada muhim o‘zgarishlarni belgilab berdi. Mazkur hujjatga ko‘ra, issiqxonalar uchun yer, mol-mulk va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 50 foiz kamaytirildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining minimal eksport narxlarini bekor qilindi.

► Davomi 3-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

IQTISODIY TASHABBUSLARDAN AMALIY NATIJALARGA

Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig‘ilishi O‘zbekistonning ochiq, pragmatik va faol tashqi iqtisodiy siyosatini, mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlarga xalqaro hamjamiyatning yuksak ishonchini yaqqol namoyon etdi.

Nufuzli xalqaro anjumanda 100 dan ortiq mamlakatdan 4000 dan ziyod ekspert, xorijiy hukumatlar, xalqaro moliya tashkilotlari, yetakchi banklar va kompaniyalar vakillari qatnashgani, avvalo, O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi obro‘-e‘tibori ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Bunday nufuzli tadbirning O‘zbekistonda o‘tkazilishi iqtisodiy diplomatiyani mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadamdir. Davlatimiz rahbari tadbirning ochilish marosimida ishtirok etgani va dolzarb tashabbuslarni ilgari surgani anjumanning ahamiyatini yanada oshirdi.

Bugun mamlakatimiz iqtisodiyoti mutlaqo yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Prezidentimiz rahbarligida iqtisodiyotni erkinlashtirish, investorlar uchun jozibador muhit yaratish borasidagi tarixiy islohotlar hayotimizning barcha jabhasida yangilanish va tub o‘zgarishlarga zamin hozirladi. Yurtimiz jahon hamjamiyatiga yanada ochilib, o‘zining beqiyos salohiyatini xalqaro maydonda namoyon etish imkoniga ega bo‘lmoqda.

Minglab zamonaviy korxonalar ishga tushirilishi, tovar va xizmatlar eksporti 3 karra o‘shib, iqtisodiyotimiz hajmi 50 milliard dollardan 147 milliard dollarga yetgani islohotlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlab, aholi daromadi va yashash darajasini yaxshilashga xizmat qilayotir.

Bunday ijobiy natijalar esa xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e‘tirof etilib, qo‘llab-quvvatlanmoqda. Buni 2020-yildan buyon O‘zbekistonning suveren kredit reytinglarida o‘z o‘rnini barqaror mustahkamlab borayotgani misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Iqtisodiy erkinlik indeksida esa bu yil yurtimiz 14 pog‘ona yuqorilab, ilk bor “iqtisodiyoti mo‘tadil erkin” davlatlar qatoridan joy olgani e‘tirofga molik.

Mamlakatimizdagi izchil islohotlarda har bir oila, har bir insonning kundalik hayotini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratildi. Natijada o‘tgan davrda 8,5 million ehtiyojmand

yurtdoshimizning daromadi oshib, kambag‘allik darajasi qariyb 35 foizdan 5,8 foizga tushdi. Asosiysi, O‘zbekiston oxirgi o‘n yilda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda eng katta ijobiy o‘zgarish qilgan besh davlatdan biri bo‘ldi. So‘nggi yillarda yurtimizdagi faol islohotlar odamlar turmushidagi o‘zgarishlar, ularning yuz-ko‘zidagi mamnunlik, bugungi yashayotgan kunidan rozilik ifodasi o‘laroq hayotimizda o‘z aksini topmoqda. O‘zbekistondagi yangilanishlarda Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari muhim o‘rin tutadi. Hozirga qadar bu bank bilan qariyb 16 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, u mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish, qishloqlarda uy-joy qurish va Markaziy Osiyoda iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish yo‘nalishlarida boshidanoq yaqqol hamkor bo‘lib kelyapti.

Mamlakatimiz Osiyo taraqqiyot banki bilan kambag‘allikni qisqartirish, inson kapitalini rivojlantirish va zamonaviy infratuzilma barpo etish kabi ustuvor yo‘nalishlarda hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha aniq rejalarni belgilab oldi.

Bugungi tahlikali davrda jahon iqtisodiyotida murakkab o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Yangi texnologiyalar esa hayotimizga jadal sur‘atda kirib kelyapti. Barqaror taraqqiyotni ta‘minlash uchun Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda yangi mexanizmlar va samarali yondashuvlarni joriy etish bugunning muhim talabi bo‘lib qolmoqda.

Ayni paytda o‘zaro bog‘liq transport tizimlari va logistika yo‘laklari barqarorligini ta‘minlash dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Jahondagi ziddiyatlar ta‘sirida logistika yo‘laklarining o‘zgarishi Markaziy Osiyo davlatlari uchun yuk tashish xarajatini 30 foizgacha oshirib, yetkazib berish muddatlarining bir necha hafta kechikishiga olib kelmoqda.

Sharq va G‘arbiy bog‘lovchi “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li loyihasi esa yuklarni yetkazib berish muddatini 10 kungacha qisqartirish va butun mintaqada tranzit salohiyatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Transport tarmoqlari yaxshilanib, savdo va iqtisodiy aloqalar kuchayadi.

Davlatimiz rahbarining Osiyo taraqqiyot bankining Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturi doirasida “Raqamli bojxona va logistika alyansi”ni tashkil etish taklifi esa bojxona tartiblarini uyg‘unlashtirish, hujjatlar aylanishini raqamlashtirish va chegara orqali yuk tashish jarayonlarini yanada soddalashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu orqali transport xarajati kamayib, savdo aylanmasi oshadi va Markaziy Osiyoning global ta‘minot zanjirlaridagi o‘rni mustahkamlanadi.

Forum doirasida ilgari surilgan muhim tashabbuslar — raqamlashtirish, “yashil” energetika, transport o‘zaro bog‘liqligi va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish sohasida uzoqni ko‘zlagan yondashuvni namoyish etish bilan birga nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining uzoq muddatli o‘shishi uchun asos yaratishi shubhasiz.

Ushbu nufuzli tadbirning asosiy natijalaridan biri — O‘zbekiston va Osiyo taraqqiyot banki (OTB) o‘rtasida 2030-yilgacha mo‘ljallangan 12,5 milliard dollarlik yangi hamkorlik dasturining imzolanihi bo‘ldi desak, yangilishmaymiz. Bu nafaqat hamkorlik portfelini kengaytirish, balki mamlakat iqtisodiyotini transformatsiya qilish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyani institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugun mamlakatimizda islohotlar chuqurlashtirilib, demokratik yangilanishlar yangi pog‘onaga ko‘tarilmoqda. Samarqand forumi esa Markaziy Osiyoning muvofiqlashtirilgan strategiyalar va o‘zaro ta‘diruvchi iqtisodiyotlar makoniga aylanayotganini ko‘rsatadi. Unda ilgari surilgan taklif va amaliy tashabbuslar, shubhasiz, kelgusida katta natijalarga, har bir kelishuv esa aniq va foydali loyihalarga aylanadi.

Munosabat



Samarqand mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti uchun muhim yana bir katta tadbirga mezbonlik qildi. Ko‘hna va hamisha navqiron kentda Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari mazkur xalqaro anjuman ochilish marosimida ishtirok etib, qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Ushbu takliflar nafaqat anjuman ishtirokchilari, balki keng jamoatchilikka katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Anjuman O‘zbekistonning Osiyo va Tinch okeani mintaqasida shakllanayotgan iqtisodiy hamkorlik arxitekturasida faol ishtirokchi sifatidagi roli tobora ortib borayotganining amaliy ifodasiga aylandi. Xalqaro forum doirasida global va mintaqaviy iqtisodiyotning ustuvor masalalari keng muhokama qilindi.

Yig‘ilish mavzusi — “Taraqqiyot chorrahalari: mintaqaning o‘zaro bog‘liq kelajagini ilgari surish” global iqtisodiy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish sohasida uzoqni ko‘zlagan integratsiyani, barqarorligi va o‘zaro bog‘liqligi tomon siljishini konseptual tarzda aks ettirdi.

Tobora kuchayib borayotgan geoiqtisodiy beqarorlik va global ta‘minot zanjirlarining tarkibiy transformatsiyasi fonida Osiyo taraqqiyot banki nafaqat moliya instituti, balki rivojlanish strategiyalarini muvofiqlashtiruvchi va xalqaro sa‘y-harakatlarni birlashtiruvchi tuzilma sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Forumning nufuzini ishtirokchilarning vakillik darajasi ham izohlaydi. Unda 100 dan ziyod mamlakatdan 4 mingdan ortiq ekspert, shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.



Nigora HUSANOVA, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Mintaqaning moliya va investitsiyalar maydonida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan bunday salohiyatli tarkibdagi ishtirokchilar anjumanni global iqtisodiyotni qiziqibollari, investitsiya oqimlari va institutsional islohotlarni muhokama qilish uchun eng nufuzli xalqaro maydonlardan biriga aylantirdi.

O‘zbekiston 1995-yildan buyon Osiyo taraqqiyot banki a‘zosi, o‘tgan 30 yildan ortiq vaqt davomida bank bilan barqaror strategik sheriklik yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, qo‘shma loyihalarning umumiy portfeli qariyb 16 milliard dollarga yetdi. Bu esa mamlakatimizni Osiyo taraqqiyot bankining mintaqadagi eng yirik sheriklaridan biriga aylantirdi.

Yana bir muhim fakt. Ushbu forumning O‘zbekistonda ikkinchi marta o‘tkazilishi ham tarixiy va ko‘p qirrali ahamiyatga ega. Avvalo, bu yetakchi xalqaro moliya institutlari tomonidan mamlakatimizdagi islohotlar va institutsional o‘zgarishlar sifatiga yuqori darajadagi ishonch ramzi. Shu bilan birga, forum Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishning samarali mexanizmi

bo‘lib, kelishilgan rivojlanish kun tartibini shakllantirishga yordam beradi.

Muhokamalarning asosiy mavzulari — “yashil” transformatsiya, energetik o‘tish, raqamlashtirish, investitsiyalarni jalb etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va ishlab chiqarish, logistika zanjirlarining barqarorligi bo‘yicha erishilgan natijalar amalda yangi mintaqaviy iqtisodiy modelning asosini shakllantirmoqda. Mazkur ustuvor yo‘nalishlar O‘zbekistonning ichki modernizatsiya strategiyasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Davlatimiz rahbari nutqida qayd etilganidek, 2030-yilga qadar mamlakatimizda barcha sohalarni texnologik va innovatsion o‘shish modeliga o‘tkazish natijasida iqtisodiyot hajmini 240 milliard dollardan oshirish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori davlatlar qatoriga kirish hamda kambag‘allikka to‘liq barham berish maqsadi belgilangan. Bu jarayonda esa xalqaro moliyaviy tashkilotlarning alohida o‘rni bor.

Bir so‘z bilan aytganda, Samarqand sammitini nafaqat O‘zbekiston, balki butun mintaqaga uchun uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab bera oladigan, uning shakllanayotgan global iqtisodiyot tizimidagi o‘rnini mustahkamlaydigan strategik platforma sifatida ko‘rish mumkin.



Prezident tashrifidan so‘ng



FARG‘ONA

SHIJOAT, ISHTIYOQ VA FAROVONLIK MASKANI

Sheroz Qoraboyev olgan suratlari.

Boshlanishi 1-betda

Ha, mamlakatimizda ro‘y berayotgan islohotlar to‘lqinida Farg‘onaga ham o‘zgacha hayot nafasi kirib keldi. Ayniqsa, yangi uy-joylar qurishdagi mislsiz yutuqlar oddiy odamlar hayotiga quvonch olib kirdi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm tarmoqlarini rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari ochilmoqda. Mahallalarni obodonlashtirish borasidagi hayotbaxsh islohotlardan har bir farg‘onalik bahra olmoqda.

Ko‘z o‘ngimizda Farg‘ona yirik shaharlar bilan bo‘ylashib bormoqda. Viloyatdagi madaniyat, turizm o‘chqlarining o‘ziga xos yangi timsoli fikrimizni quvvatlaydi. Unda bir paytning o‘zida sharqona latofat, zamonaviy shaharsozlik va landshaft arxitektura an‘analari o‘zaro uyg‘unlashgan afsonaviy shaharlar, ko‘ngilochar dam olish maskanlari qad rostlayapti. Bunday rohatbaxsh manzaralarni ko‘rib, ko‘ngilda g‘urur, iftixor paydo bo‘ladi.

Marg‘ilon xususida so‘z ketganda, qo‘lgiul hunarmandlar ko‘z oldingizga keladi. Ular asrlar davomida ipak qurti boqib, undan nafis, qalampirxona naqshi bilan bezatilgan ipak matolar tayyorlab kelmoqda. Qadim hunar yurtimizdagi islohotlar sabab yana yuksak qadrlana boshladi. U endi shunchaki hunar emas, turizmga hissa qo‘shib, aholi bandligini ta‘minlashda qo‘l keladigan muhim tarmoqdir.

Prezidentimiz 2024-yilda Farg‘ona viloyatiga tashrifida ko‘hna Marg‘ilon shahriga tutashgan kam hosilli, tosh-shag‘aldan iborat maydonda “Yangi O‘zbekiston” uy-joy massivi, madaniy-ma‘rifiy, horidiq chiqarish va turizm maskanlari qurilishiga tamal toshi qo‘yib bergandi. O‘tgan qisqa muddatda bunyodkorlik ishlari bajarildi. Natijada barcha

imkoniyat bir joyda jamlangan zamonaviy shahar paydo bo‘ldi.

Farg‘ona — Qo‘qon katta avtomobil yo‘lining janubiy sarhadi — “Yangi O‘zbekiston” massivi hududida bunyod etilgan “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma‘rifiy va turizm majmuasi mahalliy hamda xorijlik mehmonlar uchun chinakam sayohat, horidiq chiqarish maskaniga aylandi. Majmuaga qadam qo‘yishingiz bilan ko‘nglingiz g‘urur-iftixorga to‘ladi. Fayziyob binolar, yam-yashil mayсалar, gulu chechaklar sizga peshvoz chiqadi go‘yo. Bir tomondan usta kulol oddiy tuproqdan go‘zalliklar yarataypti, boshqalari ipak va yog‘ochga jilo berish bilan band. O‘lislardan taralayotgan kuy sehri bir dam xayolingizni oladi: “Agar oshiqlik‘im aytсам, kuyib jonuh o‘rtar...”.

Ertakdagi kabi betakror manzaralar bo‘ylab sayr qilasz. “O‘tkan kunlar” qahramonlari bilan shubhatlashganday bo‘lasiz. Bu yerdan o‘rin olgan har bir narsa, osori atiqalar moziyga sayohatga chorlaydi.

Mazkur majmuaga milliy me‘morchilik an‘analari, Marg‘ilonning boy tarixi hamda zamonaviy turizm talablari uyg‘unligida barpo etilgan. Shahar hududida o‘ziga xos shaharcha sifatida shakllantirilgan. Umumiy maydoni 35 gektarni egallagan majmuada sayyohlar uchun barcha zarur sharoit yaratilgan. Majmuaning asosiy yo‘nalishlaridan biri buyuk alloma Burhoniddin Marg‘inoniyning boy ilmiy merosini o‘rganish va keng targ‘ib etishdan iborat. Bu yerda o‘nlab ustaxonalar, hunarmandchilik rastalari, amfiteatr, kutubxona, bozoru masjid, mehmonxona, karvonsaroy, savdo va xizmat ko‘rsatish binolari, sayilgohlar uchun alohida o‘rin ajratilgan. Hudud haroratini mo‘tadillashtirish maqsadida qurilgan sun‘iy ko‘l, musiqali favvoralar jilvasi afsonaviy shaharga o‘zgacha fayz-tarovat berib turibdi. Hammasi go‘zal, betakror.

Majmu bo‘ylab sayru sayohatdan dili quvonchga to‘lgan bir guruh yurtdoshlarimiz bilan uchrashdik. Oltiriq tumani “Qapchug‘ay” mahalla fuqarolar yig‘inida umrguzaronlik qilayotgan Patilaxon Isajonova bu yil 86 bahorni qarshi olibdi. Farzandlari, nabiralari davrasida sayohatga kelgan onaxonning so‘zlarida shukronalik, tinchlik-tovutiqlik qadrlash kabi fazilatlar mujassam.

— Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor, — deydi Patilaxon aya. — Ilgari bunday sayru sayohatlar uchun tayinli joy, sharoit va imkoniyatlar yo‘q edi. Dala, paxtadan boshqa narsani ko‘rmaganmiz. Qarang, dunyo birdan o‘zgarib ketganday bo‘ldi. Prezidentimiz tashabbusi bilan chiroyli shahar, dam olish maskanlari qurilganini eshitib keldik. Minoralariga boqsangiz, boshingizdagi do‘ppi tushib ketay deydi-ya. Atrofdagi gul va chamanzorlarni ko‘rib, ko‘nglim tog‘dek ko‘tarildi. Umrimga umr qo‘shilganday bo‘ldi.

Zarifaxon Yusupova Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi Lolazor mahallasida yashaydi. Marg‘ilonda qurilgan yangi shahar, “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma‘rifiy va turizm majmuasining betakror binolari, so‘lim sayilgohlari uni sayohatga chorlabdi. Bu so‘lim manzili ko‘rish ishtiyogida shuncha yo‘l yurib, vohadan vodiya mehmon bo‘lib kelibdi.

— Mahobatli darvozadan kirishimiz bilan mo‘jizalar oroliga tushib qolgandek bo‘ldik, — deydi Zarifaxon opa faxr bilan. — Afsonaviy shaharchadagi Otabek va Kumush uy-muzeyi bilan tanishib, kitoblarda o‘qigan, kinofilmlarda ko‘rgan “O‘tkan kunlar”, pok muhabbat timsoli bo‘lgan asar

qahramonlari hayot tarzi bilan bevosita tanishdik. Qutidor hovlisiga monand qurilgan irmoqlar, muhabbat ramzi bo‘lgan arg‘imchoq moziydagi hayot tarzini yodga soladi. Kitobda tasvirlangan har bir holatga e‘tibor berib, juda zo‘r qilib qurilibdi. Bino va inshootlardagi nafis naqshlar ko‘zingizni oladi.

— O‘zbekiston, xususan, Farg‘onaga birinchi bor kelishimiz, — deydi latviyalik sayyoh Vladimirs Vasselovs. — Qadim Marg‘ilonda yangi afsonalar shaharchasi qurilganidan xabar topib, bu yerda qadimiy, jozibador imoratlar, hunarmandchilik ishlarini ko‘rib, hayratlandik, havasimiz ortdi. Ko‘rganlarimizni suratlanga



“Yurgan — daryo”, deydi xalqimiz. Dunyo kezib, ne bir go‘zal va so‘lim go‘shalarni ko‘rib kelayotgan sayyohlar ham ushbu muhtasham majmuaga yuqori baho bermog‘da. Bu qalbmizda faxr uyg‘otishi barobarida bajarilayotgan ishlar bahosi juda yuqori ekanini ham anglatadi. Chunki bunday majmular boy tariximizni dunyoga ko‘rsatish, yoshlarimizga tanitish maqsadida bunyod etilmog‘da. Bu, o‘z o‘rnida, sayyohlik rivojiga, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

muhrladik, oddiy odamlar bilan shubhatlashdik. O‘zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi o‘rni va nufuzi ortib borayotgani, uning kuch-qudrati, salohiyati qanchalik yuksak ekanini mana shu hayratomuz binolar ko‘rsatib turibdi. Bir alam taassurot bilan o‘rtimizga qaytqaypmiz. Bu yerda ko‘rgan-bilganlarimizni yaqinlar bilan baham ko‘ramiz, sayohatga yana kelamiz. Marg‘ilonlik hunarmandlar yillar davomida uy-joy masalasida ko‘plab qiyinchilik, muammolar girdobida yashashga majbur

bo‘ldi. Aholi sonining muttasil o‘shib borishi uy-joy, savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga ehtiyojni oshirdi. Ma‘lumotlarga qaraganda, shaharda 1 kvadrat kilometr maydonda mingdan ortiq odam yashagan. Bu belgilangan me‘yordan ancha yuqori. 1992-yildan 2016-yilga qadar bu yerda bor-yo‘g‘i o‘n gacha yaqin ko‘p qavatli uy-joy qurilgan. Oqibatda uch-to‘rt oila bir tom ostida yashashga majbur bo‘lgan. Ularning sharoiti ham haminqadar edi.

“Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma‘rifiy va turizm majmuasiga uyg‘un holda qurilgan “Yangi O‘zbekiston” turar joy massiviga yangi oilalar ko‘chib kelmoqda. Bir paytlar faqat tosh-shag‘aldan iborat bo‘lgan dala-dashtda yangi hayot boshlandi. Bu yerda maktab, bog‘cha, oilaviy poliklinika, savdo va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlari qurilib, odamlar koriga yaramog‘da, og‘irini yangil, uzog‘ini yaqin qilyapti.

— Yoshlar uchun berilgan imkoniyatdan foydalanib, subsidiya asosida 2 xonali uy oldim, — deydi Mahmudjon Alisherov. — Yangi maskanda aholi kundalik hayot tarzi uchun zarur barcha sharoit muhayyo. Yashash manzilimizga uyg‘un qurilgan “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma‘rifiy va turizm majmuasi shahrimizga o‘zgacha ulug‘vorlik, mahobat bag‘ishlab turibdi. Har oqshom oila davrasida afsonalar, mo‘jizalar shahri bo‘ylab sayohat qilish odatiy tus oldi. Erta tongdan kech oqshomga qadar davom etayotgan ko‘ngilochar, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar odamlarni yagona maqsad yo‘lida birlashtirmog‘da. Dillarga quvonch, shukronalik, daxldorlik tug‘ulganini olib kiriyapti. Betakror manzaralardan bahra olgan kishi charchog‘ini bir damda unutadi.

Bu yerda bunyodkorlikning birinchi bosqichida 8 ta 16 hadma 9 ta 12 qavatli uy qurib bitkazildi. Har bir uyning me‘moriy qiyofasi o‘ziga xos, betakror bo‘lishi uchun yangi usul va andozalardan samarali foydalanildi. Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan kommunikatsiya tarmoqlari qurildi. Zamonaviy yondashuv asosida ichki yo‘llarda yashil hududlar, piyodalar va velosiped yo‘laklari, nogironlilgi bor shaxslar uchun alohida harakatlanish hududlari tashkil etildi. Uylarning birinchi va ikkinchi qavatida ijtimoiy, savdo, xizmat ko‘rsatish obyektlari, yerto‘la qismida avtomashina turargohlari bor. Bularning barchasi inson qadrlini ulug‘lash yo‘lidagi hayotbaxsh islohotlarning yorqin timsolidir.

Qadim Marg‘ilonga oqshom choyshabini yo‘ydi. Bu tabiat hodisasi afsonalar shahriga yanada go‘zallik, ulug‘vorlik bag‘ishlagandek. Tunlari ham kunduzdikedk charog‘on! El maroqli horidiq chiqarish istagida yangi hayot maskani sari oshiqadi. Tabiat qo‘ynida buguniga shukronalik, ertangi kunga ishonch bilan xotirjam sayr qiladi. Shodon davralarda mumtoz kuy-qo‘shiqlar avjida. Bunday huzurbaxsh damlarni his etish, unga munosib yashashning o‘zi ham baxt, saodat...

Rasuljon KAMOLOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



Innovatsion issiqxonalarni rivojlantirish faqat iqtisodiy samaradorlik emas, balki strategik xavfsizlik masalasidir.



INNOVATSION ISSIQXONALAR – OZIQQ-OVQAT, IQLIM VA ENERGIYA XAVFSIZLIGINING STRATEGIK YECHIMI



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Fan, ta'lim, madaniyat, sport
va yoshlar masalalari qo'mitasi
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Endilikda eksport narxlarini tashqi bozordagi talab va taklif asosida shakllanadi. Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etgan xo'jaliklarga qo'shimcha qulayliklar yaratilishi ko'zda tutilgan. Tijorat banklari tomonidan issiqxonalarni aylanna mablag' bilan ta'minlash uchun kreditlar ajratish va mavjud kreditlar muddatlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha mexanizmlar soddalashtirilgan.

Yurtimiz sharoitida energiya tejankor issiqxonalar tashkil etish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yaxshi ayonki, qish va erta bahor mavsumlarida aholini sifatli sabzavot va poliz mahsulotlari bilan ta'minlash yuqori energiya sarfini talab qiladi. Ayni paytda an'anaviy issiqxonalar xo'jaliklarida qo'llanilayotgan isitish tizimlari, asosan, tabiiy gaz va qattiq yoqilg'iga tayangan holda ishlaydi. Bu esa, bir tomondan, ishlab chiqarish xarajatlari ortishiga, ikkinchi tomondan, atrof-muhitga salbiy ta'sir kuchayishiga olib kelmoqda.

Masalan, mavjud hisob-kitoblarga ko'ra, o'rta 600 kvadrat metrligi issiqxonani an'anaviy usulda isitish jarayonida 10 kun mobaynida yuzlab kilogramm miqdorida karbonat angidrid atmosferaga chiqariladi. Bu esa nafaqat ekologik muammo, balki kelgusida mahsulotning eksport imkoniyatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Chunki jahon bozorida tobora "yashil mahsulot" standartlari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, issiqxonalar xo'jaliklarini rivojlantirishda energiya samaradorligi masalasi markaziy o'rinda chiqmoqda. Bugungi kunda issiqxonalar biznesida umumiy xarajatlarning qariyb yarmi energiya resurslariga to'g'ri kelishi bu sohada texnologik yangilanishlar zarurligini yanada kuchaytiradi. Agar energiya sarfi kamaytirilmasa, mahsulot tannaxrini pasaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va eksport hajmini kengaytirish amaliyotida qiyinlashadi.

So'nggi yillardagi dunyo amaliyoti ko'rsatmoqdaki, issiqxonalar xo'jaliklarida yuqori samaradorlikka erishishning asosiy yo'li — muqobil energiya texnologiyalarini joriy etish. Xususan, rivojlangan davlatlarda issiqlik nasoslari texnologiyasi keng qo'llanilayotgan innovatsion yechim sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur texnologiya an'anaviy isitish tizimlaridan tubdan farq qilib, yoqilg'ini yuqori orqali emas, balki atrof-muhitda mavjud energiyani qayta taqsimlash orqali ishlaydi.

Issiqlik nasoslarining asosiy ustunligi ularning yuqori energiya samaradorligi bilan izohlanadi. Amaliyot ko'rsatmoqdaki, bunday tizimlar 1 kilovatt elektr energiyasi sarflab, 3-5 kilovattgacha issiqlik energiyasi hosil qilish imkoniyatiga ega. Bu ko'rsatkich an'anaviy elektr isitish tizimlariga nisbatan bir necha barobar yuqori samaradorlikni anglatadi.

Yurtimizda ham mazkur texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan amaliy ishlar boshlab yuborilgan. Xususan, Toshkent shahridagi "Texnopark" tomonidan taklif etilayotgan innovatsion issiqxonalar yechimlari bu yo'nalishdagi ilk muhim qadamlardan biri. Ushbu loyihalar doirasida issiqlik nasoslariga asoslangan energiya tejankor tizimlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Sinov loyihalari natijalari mazkur yondashuvning samaradorligini tasdiqlamoqda. Jumladan, 130 va 260 kilovatt quvvatga ega issiqlik nasoslari orqali olingan amaliy ko'rsatkichlar tizimning barqaror ishlashini hamda energiyadan foydalanish samaradorligi yuqori ekanini ko'rsatdi. Bu esa texnologiya faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham o'zini oqlayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, masalaga kengroq yondashish talab etiladi. Issiqlik nasoslari joriy etilishi faqat energiya tejash bilan cheklanib qolmaydi. U mahsulot tannaxrini pasaytirish, ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va ekologik xavfsizlikni kuchaytirish kabi qator strategik vazifalarni hal etish imkonini beradi.

Boshqacha aytganda, bu texnologiya agrar sohadagi oddiy modernizatsiya emas, balki tizimli o'zgarishlarni anglatadi. U qishloq xo'jaligini an'anaviy usullardan industrial va innovatsion bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Shu bois, innovatsion issiqxonalarni rivojlantirish masalasi nafaqat alohida xo'jaliklar manfaatini, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik muvozanatni ta'minlash nuqtayi nazaridan ham strategik ahamiyatga ega.



"Yashil" taraqqiyot

Amaliy hisob-kitoblarga ko'rsatmoqdaki, issiqlik nasoslari joriy etilgan issiqxonalarda isitish xarajatlari umumiy hisobda 40-60 foizgacha kamayishi mumkin. Bu ko'rsatkich, albatta, har bir loyihaning texnik parametrlari, iqlim sharoiti va boshqaruv samaradorligiga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Biroq umumiy tendensiya — xarajatlarning sezilarli qisqarishi barqaror ravishda kuzatiladi.

Iqtisodiy samaradorlikni baholashda yana bir muhim omil — investitsiyaning qaytish muddatidir. Issiqlik nasoslari asosidagi tizimlarni joriy etish uchun dastlabki sarmoya an'anaviy qozonxonalariga nisbatan yuqoriroq bo'lishi tabiiy. Chunki bu yerda yuqori texnologik uskunalarni, avtomatlashtirish tizimlari va energiya boshqaruvchi yechimlari talab etiladi. Biroq bu farq uzoq muddatda o'zini oqlaydi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, bunday loyihalarning o'zini oqlash muddati o'rta 2-4 yilni tashkil etadi. Bu esa agrar sektor uchun nisbatan qisqa davr. Chunki qishloq xo'jaligida ko'plab investitsion loyihalarda bu muddat ancha uzoq — 5-7 yilgacha cho'zilishi mumkin. Demak, issiqlik nasoslari qo'llanilishi nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki investitsiyalarning samaradorligini ham oshiradi.

Shu bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni faqat energiya xarajatlari orqali baholash to'liq tasavvur bermaydi. Innovatsion issiqxonalarda ishlab chiqarish jarayoni avtomatlashtirilishi, mikroiklimning barqaror ta'minlanishi va inson omili qisqarishi natijasida hosildorlik ham oshadi. Amaliyotda bu ko'rsatkich 20-25 foizgacha yetishi mumkin. Bu esa daromadning ko'payishiga, shu orqali investitsiyalarning tezroq qaytishiga xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyani yangi bir muhim iqtisodiy afzallik mahsulot tannaxri pasayishidir. Energiya xarajatlari qisqarishi, resurslardan samarali foydalanish va hosildorlik oshirish natijasida yetishtirilayotgan mahsulot tannaxri an'anaviy issiqxonalaridagiga nisbatan o'rta 25-30 foiz arzonlashishi mumkin. Bu esa ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash bilan birga tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshiradi.

Eksport nuqtayi nazaridan bu omil muhim ahamiyatga ega. Chunki xalqaro bozorlarda raqobat faqat sifat bilan emas, balki narx orqali ham belgilanadi. Agar mahsulot arzon va bir vaqtning o'zida ekologik toza bo'lsa, uning eksport imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi.

Ekologik omil bu yerda alohida ta'kidlashga loyiq. An'anaviy isitish tizimlarida yoqilg'ini yoqilish natijasida atmosferaga katta miqdorda zararli gazlar chiqariladi. Issiqlik nasoslari bunday chiqindilarni deyarli nol darajaga tushiradi. Bu esa nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki xalqaro ekologik standartlarga javob berish nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarda "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosiy ustuvorlikka aylangan. Yevropa Ittifoqi kabi bozorlarda mahsulotning "karbon

izi"ga alohida e'tibor qaratilmoqda. Demak, kelgusida eksport geografiasini kengaytirish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilar ana shunday talablarga moslashishi shart. Issiqlik nasoslari esa bu yo'nalishdagi muhim instrument sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur jarayonlarning davlat siyosati bilan uyg'unligi ham diqqatga sazovor. So'nggi yillarda yurtimizda energiya samaradorligini oshirish va "yashil" texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, energiya tejankor texnologiyalarni qo'llayotgan xo'jaliklarga soliq imtiyozlari, subsidiya va imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmlari joriy etildi.

Shuningdek, issiqxonalar xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan qarorlar doirasida soliq yukini kamaytirish, eksport tartiblarini liberalashtirish va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish choralari belgilandi. Bu esa innovatsion texnologiyalarni joriy etishni iqtisodiy jihatdan yanada jozibador qiladi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari xususiy sektor uchun strategik yo'nalish ko'rsatkichi vazifasini o'taydi. Bu esa energiya samaradorligiga asoslangan ishlab chiqarish modellari kelgusida ustuvor tarzda rivojlantirilishini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur sohadagi investitsiyalar nafaqat bugungi sharoitda, balki uzoq muddatli ishtirokda ham yuqori samara berish salohiyatiga ega.

Shu bilan birga, masalaga real yondashish talab etiladi. Har qanday texnologiya kabi issiqlik nasoslari ham mutlaq ideal yechim emas. Ularni joriy etish jarayonida texnik, moliyaviy va tashkiliy muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Agar issiqxonalar konstruksiyasidagi izolyatsiya talab darajasida bo'lmasa yoki uskuna quvvati noto'g'ri tanlangan bo'lsa, kutilgan samaradorlikka erishish qiyinlashadi. Bu esa ayrim hollarda texnologiyani o'ziga nisbatan noto'g'ri xulosalar chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda tizimli yondashuv, mutaxassislar ishtirokida to'g'ri loyihalash va sifatli servis xizmatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Umuman olganda, issiqlik nasoslariga asoslangan issiqxonalar iqtisodiy, ekologik va texnologik jihatdan samarali yechim sifatida shakllanmoqda. Biroq ularning haqiqiy samarasi faqatgina to'g'ri boshqaruv, puxta hisob-kitob va davlat siyosati bilan uyg'un holda joriy etiladiganiga namoyon bo'ladi.

Innovatsion texnologiyalar joriy etilishi har doim ikki tomonlama jarayon hisoblanadi. Bir tomondan, u yuqori samaradorlik va yangi imkoniyatlarni taqdim etsa, ikkinchi tomondan, noto'g'ri yondashuv yoki yetarli tayyorgarlik mavjud emasligi ushbu imkoniyatlarni to'liq yo'l yobga chiqarishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, issiqlik nasoslariga asoslangan issiqxonalarni joriy etish masalasini faqat afzalliklar nuqtayi nazaridan emas, balki

mavjud risklar va cheklorlar bilan birgalikda baholash maqsadga muvofiq.

Avvalo, eng asosiy muammolardan biri dastlabki investitsiya hajmi nisbatan yuqoriligidir. Innovatsion isitish tizimlari, avtomatlashtirish vositalari va zamonaviy infratuzilmani yaratish an'anaviy issiqxonalariga qaraganda ko'proq sarmoya talab etadi. Bu esa, ayniqsa, kichik va o'rta fermer xo'jaliklari uchun muayyan moliyaviy to'siqlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois, mazkur texnologiyalarni ommalashtirishda davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi muhim jihat — energiya ta'minoti barqarorligi masalasidir. Issiqlik nasoslari elektr energiyasiga bog'liq bo'lgani sababli elektr ta'minotidagi uzilishlar butun ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar an'anaviy tizimlarda yoqilg'ini zaxira qilish imkoniyati mavjud bo'lsa, elektr energiyasida bunday imkoniyat cheklangan. Shuning uchun mazkur texnologiyalarni joriy etishda zaxira elektr manbalari, jumladan, quyosh panellari yoki dizel generatorlar bilan integratsiyalash masalasi alohida e'tibor talab qiladi.

Mazkur texnologiyalarning eksport salohiyati yuqori baholalanmoqda. Markaziy Osiyo davlatlarining iqlim sharoiti o'xshash ekanini hisobga olsak, energiya tejankor issiqxonalar yechimlariga talab mintaqada ortib boradi.

Bu esa O'zbekiston uchun nafaqat ichki bozorni ta'minlash, balki yuqori texnologik mahsulotlarni eksport qilish orqali qo'shimcha valyuta tushumlarini shakllantirish imkonini beradi.

Shu o'rinda yana bir muhim jihatga e'tibor qaratish lozim. Innovatsion issiqxonalarni rivojlantirish faqat iqtisodiy samaradorlik emas, balki strategik xavfsizlik masalasidir.

Oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash, tashqi bozorlarga bog'liqlikni kamaytirish va aholini barqaror ravishda sifatli, arzon mahsulotlar bilan ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri. Issiqlik nasoslari esa aynan shu vazifalarni amalga oshirishda muhim instrument hisoblanadi.

Umuman olganda, innovatsion issiqxonalar joriy etish yurtimiz qishloq xo'jaligini rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berayotganini ta'kidlash o'rinni. Bu jarayon an'anaviy usullardan sanoat va texnologik yondashuvlarga o'tishni anglatadi. Shu bilan birga, mazkur transformatsiyaning muvaffaqiyati faqat texnologiyani o'ziga emas, balki uning qanchalik to'g'ri va tizimli joriy etilishiga bog'liq.

Issiqlik nasoslariga asoslangan innovatsion issiqxonalar shunchaki yangi texnologiya emas. Bu qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, energiya samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiluvchi kompleks iqtisodiy yechimdir. Uning samarasi esa faqatgina to'g'ri strategiya, puxta hisob-kitob va davlat hamda xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik orqali to'liq namoyon bo'ladi.

bog'liq. Agar issiqxonalar konstruksiyasidagi issiqlik izolyatsiyasi yetarli darajada bo'lmasa yoki uskuna quvvati noto'g'ri hisoblangan bo'lsa, kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi. Bunday hollarda energiya tejallishi o'rni, aksincha, qo'shimcha sarflar yuzaga kelishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, eng xavfli ssenariylardan biri texnologiyani fragmentar tarzda joriy etishdir. Ya'ni issiqlik nasoslari o'rnatiladi, lekin issiqxonalar konstruksiyasi, avtomatlashtirish tizimi va energiya boshqaruvchi kompleks tarzda yangilanmaydi. Bunday yondashuvda tizimning umumiy samaradorligi keskin pasayadi va texnologiya o'zini oqlamaydi. Bu esa bozorda noto'g'ri tasavvurlarni shakllantiradi.

Demak, innovatsion issiqxonalarni joriy etishda eng muhim talab — kompleks yondashuv. Ya'ni uskunaga tanlashdan tortib, loyihalash, qurilish va ekspluatatsiyagacha bo'lgan barcha bosqichlar o'zaro uyg'un holda amalga oshirilishi lozim.

Shu bilan birga, mazkur jarayonni kengroq iqtisodiy kontekstda ko'rib chiqish muhimdir. Innovatsion issiqxonalarni rivojlantirish nafaqat alohida xo'jaliklar samaradorligini oshiradi, balki butun tarmoqning sanoatlashuviga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, yangi qiymat zanjirlarini shakllantirish, qayta ishlab sanoatini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Bu yerda lokalizatsiya masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ilgari issiqxonalar texnologiyalari asosan xorijdan import qilinib, bu valyuta chiqimlari ortishi va tashqi bozorlarga bog'liqlik kuchayishiga olib kelardi. Bugungi kunda esa mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali ushbu muammoni bartaraf etish imkoniyati paydo bo'lmoqda.

"Texnopark" tomonidan issiqlik nasoslari va issiqxonalar uchun zarur qator komponentlarni mahalliyashtirish bu yo'nalishdagi muhim qadam hisoblanadi. Bu nafaqat mahsulot tannaxrini pasaytirish, balki servis xizmatlarini tezlashtirish va texnologik mustaqillikni ta'minlash imkonini beradi. Mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratish, muhandislik salohiyatini oshirish va innovatsion ekotizimni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyalarning eksport salohiyati yuqori baholalanmoqda. Markaziy Osiyo davlatlarining iqlim sharoiti o'xshash ekanini hisobga olsak, energiya tejankor issiqxonalar yechimlariga talab mintaqada ortib boradi.

Bu esa O'zbekiston uchun nafaqat ichki bozorni ta'minlash, balki yuqori texnologik mahsulotlarni eksport qilish orqali qo'shimcha valyuta tushumlarini shakllantirish imkonini beradi.

Shu o'rinda yana bir muhim jihatga e'tibor qaratish lozim. Innovatsion issiqxonalarni rivojlantirish faqat iqtisodiy samaradorlik emas, balki strategik xavfsizlik masalasidir.

Oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash, tashqi bozorlarga bog'liqlikni kamaytirish va aholini barqaror ravishda sifatli, arzon mahsulotlar bilan ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri. Issiqlik nasoslari esa aynan shu vazifalarni amalga oshirishda muhim instrument hisoblanadi.

Umuman olganda, innovatsion issiqxonalar joriy etish yurtimiz qishloq xo'jaligini rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berayotganini ta'kidlash o'rinni. Bu jarayon an'anaviy usullardan sanoat va texnologik yondashuvlarga o'tishni anglatadi. Shu bilan birga, mazkur transformatsiyaning muvaffaqiyati faqat texnologiyani o'ziga emas, balki uning qanchalik to'g'ri va tizimli joriy etilishiga bog'liq.

Issiqlik nasoslariga asoslangan innovatsion issiqxonalar shunchaki yangi texnologiya emas. Bu qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, energiya samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiluvchi kompleks iqtisodiy yechimdir. Uning samarasi esa faqatgina to'g'ri strategiya, puxta hisob-kitob va davlat hamda xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik orqali to'liq namoyon bo'ladi.



Kun mavzusi

Hozir odamlarning bank va moliya xizmatlaridan foydalanishi shunchaki hashamat emas, balki kundalik ehtiyojga aylangan. To'lovlarni to'lash, valyuta ayirboshlash, biror turdagi kreditni rasmiylashtirish va boshqa ko'plab masalalar tufayli istalgan vaqtda tijorat banklariga kirishimiz mumkin. Ular taklif etayotgan xizmatlar tanlovda esa imkoniyatimiz ancha keng. Shunga qaramay, bu yo'nalishda yangi turdagi takliflarga ham ehtiyoj katta.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

ulami amalga oshirish tartiblari belgilab qo'yilgan. Ana shu talablardan chetga chiqqan moliya tashkilotlariga tegishli tartibda choralar ko'riladi. Ya'ni shariat kengashlarining nazorati orqali islomiy banklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noto'g'ri harakatlar, turli moliyaviy xatarlarda davlat o'rtada turib, kafolat bo'ladi.

Tadbirkorlar uchun manfaatlimi?

Qonun uch oydan keyin rasman kuchga kiradi va yurtimiz tijorat banklarida birin-ketin "islomiy darcha"lar ish boshlaydi. Hozir 10 dan ortiq bank islomiy moliya xizmatlarini joriy etishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Ba'zilarida esa sinov tariqasida "islomiy darcha"lar ochilib, ularning funksiyalariga qiziqqan aholi va tadbirkorlarga tushunchalar berib borilyapti.

Moliyaviy xizmatlarning mazkur turiga, ayniqsa, biznes egalari katta qiziqish bildirmoqda. Ammo aksariyatimiz islom moliyasi shariat qoidalariga asoslanishigina bilamiz, biroq bu aynan qanday talab va shartlar ekan, qo'llash mexanizmlari borasida deyarli tushunchaga ega emasmiz. Shu bois, hukumat tomonidan qabul qilingan loyiha boshqaruv rejasida aholi va tadbirkorlik subyektlarining islom moliyasi sohasidagi savodxonligini oshirish, islomiy bank mahsulotlari va xizmatlari mohiyatini tushuntirishga qaratilgan keng qamrovli moliyaviy targ'ibot va o'quv dasturlarini olib borish vazifalari belgilangan.

Unda mutaxassislar aholi va tadbirkorlar bilan muloqotlar davomida islom bankchiligi va instrumentlarining amaliyotda qo'llanish xususiyatlarini haqida tushuncha bermoqda. O'zbekiston banklari assotsiatsiyasida qator tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan o'quv seminarlarda ham gal yuzlab tadbirkorlar ishtirok etib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oylaypti.

Ochig'i, islom moliyasi haqida eshitganman, ammo hech qanday tushuncham yo'q. Shu bois, ko'proq ma'lumot olishga qiziqyapman. Chunki tadbirkor bo'lganim bois, moliyaviy xizmatlardan ko'p foydalanaman va bu borada doim qulay shartlardagi takliflarni izlashga intilaman, — deydi Toshkent shahridagi "Auksin" MCHJ rahbari Umarjon Ochilov. — Hozircha islom moliyasi haqidagi ma'lumotlarni o'rganib, tahlil qilyapman. Xulosa baribir amaliyotda foydalana boshlaganimizdan keyin paydo bo'ladi. Agar shartlari bizga qulay bo'lsa, albatta, islom moliya xizmatlaridan foydalanaman. Bu ham moliyaviy xizmatlar borasidagi tanlov imkoniyatimizni oshiradi. Qolaversa, boshqa tijorat banklarida ham yangi takliflarni shakllantiradi. Masalan, oxirgi marta tijorat bankidan 18 foizli imtiyoz asosida 450 million so'm kredit olganman. Aslida, 24 foiz, lekin o'qishni bitirgan yoshlarni ish bilan ta'minlaganim uchun imtiyozli foizda berilgan. Shu kabi takliflar ham tadbirkorlarni qiziqtiradi. Yaqinda ko'mirni qayta ishlash bo'yicha yangi loyiha boshlash arafasidaman va buning uchun mablag' zarur. Islom moliya xizmatlari ochilgach, takliflari ma'qul kelsa, ulardan ham foydalanish niyatim bor.

Islom banklari ham, odatiy tijorat banklari ham o'z talablari doirasida taklif beradi, insonlar esa o'ziga ma'qulini tanlaydi. Bunda moliya xizmatlarining ikki turi bir-biriga xavf sifatida shakllanmaydi. Aksincha, odamlarga beriladigan moliyaviy takliflarni oshiradi. Taklif turi qancha ko'p bo'lsa, xizmatlar sifati shuncha ortib boradi. Bu erkin bozor iqtisodiyoti va sog'lom raqobat tamoyillaridan biri.

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

ISLOMIY BANK TO'G'RISIDAGI QONUN YURTIMIZ AMALIYOTIDA YANGILIK



Yani qonun bilan islomiy bank faoliyati uchun alohida litsenziya joriy etilmog'da. Bunda asosan ikkita model nazarda tutilgan. Birinchisi, mutlaqo yangidan tashkil etiladigan islomiy banklar litsenziya asosida ish boshlaydi. Ikkinchisi esa amalda ishlab kelayotgan banklar ham islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi litsenziya orqali bir vaqtning o'zida ikki yo'nalishdagi xizmatlarni ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston banklari assotsiatsiyasida qator alohida "islomiy darcha"lar ochiladi.

Litsenziyaga ega banklar bevosita islom moliyasi asosida belgilangan xizmatlarni ko'rsatishi mumkin. Ularga alohida soliq imtiyozlari berilishi ham nazarda tutilgan. Litsenziyani olishning esa aniq talablari belgilangan bo'lib, mazkur hujjatning amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi va litsenziyalarni yoki ularga doir huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish taqiqlanadi.

Demak, litsenziya banklarga islomiy moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beradi. Bu — faoliyat yuritish uchun ruxsatnoma degani. Ammo banklar bu faoliyatni qanday yuritishi esa alohida masala. Ya'ni shariat qoidalariga asoslangan moliyaviy xizmatlar ko'rsatish talablari qonunda belgilangan bo'lsa, amaliyotda ularning o'zlarini nazorat qilish ham muhim. Aks holda, odamlarda islomiy banklar ham an'anaviy moliya tashkilotlari kabi ishlash qabilidagi fikrlar paydo bo'lishi mumkin.

Islom moliyasini joriy etishda xalqaro tajriba va shar'iy standartlar o'rganilgani bejiz emas. Ana shu standartlar asosida milliy dastur ishlab chiqiladi va aholiga taqdim etilayotganida mavjud me'yorga amal qilinishiga jiddiy e'tibor qaratilyapti, — dedi Muxtorjon Akramov. — Mazkur talablar ijrosini Markaziy bank va tijorat banklarida tashkil etiladigan Shariat kengashlari nazorat qiladi. Ushbu kengashlarda O'zbekiston musulmonlari idorasi fatvo markazi mutaxassislaridan iborat guruh bevosita ishlashadi. Ya'ni islomiy banklarning faqat nomi emas, balki talab va mexanizmlari ham aynan shariat qoidalariga moslashtiriladi. Albatta, islom banklarida ham foyda ko'rish degan tamoyil mavjud, ammo bu shariat qoidalari, mezonlariga asoslanadi.

Qonun bilan islomiy banklar va tijorat banklaridagi "islomiy darcha"larda ko'rsatiladigan islomiy moliya operatsiyalari, tashqari noaniqlik, qimor, moliyalashtirish, qarzni chegirima bilan sotish va sotib olish, jarimalarni monetizatsiya qilish to'g'ridan to'g'ri taqiqlanadi. Xo'sh, u holda banklar islom moliyasidan qanday foyda ko'radi?

Islom bankchiligida moliyaviy operatsiyalarning bir qancha turlari bor va ularning har biri foyda olishning turli yo'nalishlarini nazarda tutadi, — deydi "Mezon" ta'lim kompaniyasi direktori Muxtorjon Akramov. — Masalan, murobaha, ya'ni oldindan to'lov asosida moliyalashtirishni o'ylaylik. Bunda real moliya bilan ishlanadi. Aytaylik, tadbirkorga ish faoliyati uchun biror texnika zarur. Islomiy bank ana shu texnikani sotib olib beradi va unga o'zining xarajat yoki foydasini ko'rgan holda tadbirkorga sotadi. Masalan, 100 million so'mga texnika olsa, uni 125 million so'mga beradi. Bunda 25 million so'm islomiy banking foydasi va bu summa toki qarz uzilmaguniga qadar o'zgaraydi. Kelishuv asosida to'lov muddati belgilanadi va tadbirkor texnika uchun ko'rsatilgan summani o'sha davr ichida oyma-oyma to'lab beradi. Bu yerda hech qanday qo'shimcha ustama, yillik foiz bo'lmaydi.

Qonunga ko'ra, banklar 6 turdagi islomiy moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish ko'zda tutilyapti. Bu operatsiyalarga foydani taqsimlash sharti asosida mijozni moliyalashtirish yoki pul mablag'larini investitsiyaviy omonatlarga jalb etish (muzoraba), vakillik shartnomasi orqali pul mablag'larini berish yoki investitsiyaviy omonatlarga jalb etish (vakala), tovarni nasiyaga sotish orqali mijozni moliyalashtirish (murobaha), tovarlar uchun oldindan haq to'lash orqali mijozni moliyalashtirish (salam), birligakdagi faoliyatini (shirikchilik) amalga oshirish yoki yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etish orqali mijozni moliyalashtirish (mushoraka) hamda mol-mulkni keyinchalik sotib olish huquqi bilan ijara (lizing)ga berish kiradi.

Mazkur moliyaviy operatsiyalarni qonunda belgilangan tartibda tashkil etilgan va Markaziy bank tomonidan beriladigan tegishli litsenziyaga ega yuridik shaxslar amalga oshirishga haqlidir.

Turmush o'rtog'im birinchi guruh nogironi. Farzandlarim hali yosh. Faqatgina erimning nafaqasiga bir amallab kun ko'radik, — deydi Gulnoza Allaberdiyeva. — Bu yerga ishga taklif etishgani yaxshi bo'ldi. Tikuvchilik tajribam borligi uchun darhol ishni boshlab yubordim. Endilikda oylik olib, ro'z'orga nafim tegadigan bo'ldi. Turmushimiz yaxshilandi. O'zi ancha yillardan buyon biror korxonada ishlashni orzu qilardim. Afsuski, shu vaqtda qadar buning iloji bo'lmadi. Oilada yetishmovchilik bo'lib qolgan kezar sabrli bo'lishga harakat qildim. Bugun ishliman, muammolarimiz ham kamaydi.

Qonun bilan islomiy bank faoliyati uchun alohida litsenziya joriy etilmog'da. Bunda asosan ikkita model nazarda tutilgan. Birinchisi, mutlaqo yangidan tashkil etiladigan islomiy banklar litsenziya asosida ish boshlaydi. Ikkinchisi esa amalda ishlab kelayotgan banklar ham islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi litsenziya orqali bir vaqtning o'zida ikki yo'nalishdagi xizmatlarni ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston banklari assotsiatsiyasida qator alohida "islomiy darcha"lar ochiladi.

Litsenziyaga ega banklar bevosita islom moliyasi asosida belgilangan xizmatlarni ko'rsatishi mumkin. Ularga alohida soliq imtiyozlari berilishi ham nazarda tutilgan. Litsenziyani olishning esa aniq talablari belgilangan bo'lib, mazkur hujjatning amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi va litsenziyalarni yoki ularga doir huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish taqiqlanadi.

Demak, litsenziya banklarga islomiy moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beradi. Bu — faoliyat yuritish uchun ruxsatnoma degani. Ammo banklar bu faoliyatni qanday yuritishi esa alohida masala. Ya'ni shariat qoidalariga asoslangan moliyaviy xizmatlar ko'rsatish talablari qonunda belgilangan bo'lsa, amaliyotda ularning o'zlarini nazorat qilish ham muhim. Aks holda, odamlarda islomiy banklar ham an'anaviy moliya tashkilotlari kabi ishlash qabilidagi fikrlar paydo bo'lishi mumkin.

Islom moliyasini joriy etishda xalqaro tajriba va shar'iy standartlar o'rganilgani bejiz emas. Ana shu standartlar asosida milliy dastur ishlab chiqiladi va aholiga taqdim etilayotganida mavjud me'yorga amal qilinishiga jiddiy e'tibor qaratilyapti, — dedi Muxtorjon Akramov. — Mazkur talablar ijrosini Markaziy bank va tijorat banklarida tashkil etiladigan Shariat kengashlari nazorat qiladi. Ushbu kengashlarda O'zbekiston musulmonlari idorasi fatvo markazi mutaxassislaridan iborat guruh bevosita ishlashadi. Ya'ni islomiy banklarning faqat nomi emas, balki talab va mexanizmlari ham aynan shariat qoidalariga moslashtiriladi. Albatta, islom banklarida ham foyda ko'rish degan tamoyil mavjud, ammo bu shariat qoidalari, mezonlariga asoslanadi.

Qonun bilan islomiy banklar va tijorat banklaridagi "islomiy darcha"larda ko'rsatiladigan islomiy moliya operatsiyalari,

Keyingi vaqtlarda O'zbekistonga islom qoidalariga asoslangan moliya tizimi kirib kelgani va uni amaliyotda joriy etish boshlangani haqidagi xabarlar yurtdoshlarimiz orasida qizg'in kutib olinib, keng muhokama qilinayotgani boisi shunda. Ko'pchilik buni anachadan buyon kutayotganini aytasa, ba'zilar to'la islom tamoyillariga asoslangan banklarning ochilishiga ishonchsiz qaramoqda. Ammo baribir yurtimizda islomiy moliya tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar faollashgani odamlarda alohida qiziqish uyg'otiyapti.

Aslida, mamlakatimizda islomiy moliya tizimini joriy etish harakatlari 2020-yildan boshlangan. O'tgan yillardagi o'rganish va tahlillardan so'nggina aniq amaliy ishga o'tilmog'da. Endi mamlakatimizga islom moliya tizimi nafaqat kirib keldi, balki amaliyotda tashkil etish ishlari boshlab yuborilgan. Hatto, 2027-yilda yurtimizda birinchi islomiy bank ochilishi kutilyapti. Ayni paytda esa qator tijorat banklari islom moliya xizmatlarini ko'rsatishga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Biz uchun nisbatan yangi bo'lgan mazkur tizim joriy yil 27-mart kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy qilishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solindi. Uning qabul qilinishi islom moliyasini tashkil etish yo'lida tashlangan muhim qadamlardan bo'lib, mamlakatimiz moliya tizimida yangi bosqichni boshlab berishi aytilmog'da. Gap faqat ko'plab davlatlardagi kabi yurtimizda ham islom moliyasining qo'llanishida emas, balki zamonaviy mexanizmlarni ishga tushirish orqali aholining bank-moliya yo'nalishidagi xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada oshirish hamda tanlovni kengaytirish haqida boryapti.

Ma'lumotlarga ko'ra, ba'zi mamlakatlarda odamlar diniy aqidalari sabab an'anaviy tijorat banklari xizmatlaridan foydalanmaydi. Moliyaviy oldi-berdildan uzoq yuradi. BMT Taraqqiyot dasturi tahlillarida keltirilishicha, bunday omillar O'zbekistonda ham mavjud. Xususan, aholining qariyb 68 foizi va tadbirkorlarning 60 foizi muayyan sabablarga ko'ra an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanmaydi. Ular uchun islomiy bank xizmatlarining taklif etilishi bu bo'shliqni to'ldirishi mumkin. Qabul qilingan yangi qonun ayni ehtiyojni ta'minlash barobarida mamlakatimizga yillik 5 milliard dollargacha baholanayotgan islomiy kapitalni jalb etish imkoniyatini ochishi kutilmog'da.

Foyda nimadan olinadi? Islomiy banklarni tashkil etish haqida gap borganida, nega bu jarayon yurtimizda ancha



Bu muammolar kechagi yoki bir-ikki kunlik emasdi. Bunga ancha yillar bo'ldi. Hatto hudud aholisi o'zgarishlar ro'y berishidan umidini ham uzgandi. Boisi, Yangiobod mahallasi Nishon tumani markazidan qirq chaqirim narida, chegara hududda joylashgani. Shu sabab ko'pchilik bu joyni nafaqat manzil jihatidan, balki e'tibordan ham yiroqda deb bilardi. Aholining murojaatlari javobsiz qoldirdi. Odamlar mahallaga arz qilib boray desa, idoraning holatini ko'rib, jim qaytardi.

Bittagina xonadan iborat eski imoratda omonatgina o'tirgan rais ham dardini kimya aytishni bilmay, lol edi. Qishloq shifokorlik punktni aytmasizmi? Yaxshiyam qachonlardir xo'jalikdan qolgan eski vagon bor ekan. Bo'lmasa, ko'chada qolisharmidi? Shifokorlarga rahmat. Shu vagonchada bir necha yillar bemorlarni qabul qilishdi. Imkon darajasida ularning dardiga darmon bo'ldi. Lekin arz-dodi mahalladan nariga o'tmadi. O'tgani ham hech bir samara bermadi. Jimgina ishlashdan o'zga chora yo'q edi. Mabodo, qog'oz-qalam qiladigan bo'lsa, kaltak o'zlarining boshida singan. Tez yordam bo'limi xodimlari esa xaroba kulbada amallab kun o'tkazdi. Ayniqsa, qish-qirovli kunlarda ularning holiga maymunlar yig'lagan bo'lsa, ajabmas. Bittagina pechkaning yoniga tiqilib, tong otirish oson deysizmi?

Bu hol salkam chorak asr davom etgan. Shukrki, islohotlar shamoli keyingi yillarda Yangiobod tomonida ham esdi. Qisqa fursatda bunyodkorlik ishlari boshlanib ketdi. Avvalo, mahalla idorasi joylashgan eski bino to'liq

ZAMONAVIY QIYOFAGA KIRAYOTGAN MAHALLA

ta'mirlandi. "Yettilik"ning har biri alohida, shinam xonalarga joylashtirilib, bo'sh qolgan boshqa xonalarga tibbiyot punkti shifokorlari uchun sharoit yaratildi. Bemorlarni qabul qilish uchun tibbiy jihozlar keltirildi. — O'zgarishlarga burchalik tez qo'l uriladi deb o'ylamagandik, — deydi "Yangiobod" MFY raisi Bahrom Jo'rayev. — Rosti, shu yaqin ikki-uch yilgacha har tomonlama juda orqada edik. Aholini ish bilan ta'minlash, hudud obodligi borasida ham deyarli biror o'zgarish bo'lmagan. Misol uchun, tuman markaziga borish uchun kamida 42 kilometr yo'l bosishimiz kerak. Birgina tibbiy muolaja uchun borishga kamida bir soatdan ko'p vaqt ketadi. Yo'llarimiz ancha abgor ahvoldaligi mushkulimizni yanada ko'paytirardi. Bemor battar kasal bo'lardi. Qishloq vrachlik punktimiz bor deya olmasdik. Shu muammolar bois, og'ir toifadagi mahallalar ro'yxatiga kiritilgandi. Endi bundan chiqish uchun astoydil ish boshlangan. Yo'llarimiz yaxshilandi, mahallamizda obod ko'cha, obod xonadonlar ko'paymog'da. Odamlarning yashash tarzi ham yaxshilanyapti.

Hudud obodlikka yuz tutayotganini anglash qiyin emas. Masalan, yaqin yillarda bo'lgan bo'lgan bo'lgan katta yo'lining ahvoli maqtanarli emasdi. Ayni kunlarda ta'mirlanayotganiga guvoh bo'ldik. Bundan tashqari, mahallada ishsizlik ikki-uch yil oldin 13-14 foiz atrofidagi bo'lgan bo'lsa, bugun 5-6 foizga tushgan. Buni, avvalo, aholiga o'z-o'zini band qilish uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar maqsadli sarflanayotganida, odamlar tomorqadan unumli foydalanish boshlaganida ko'rish mumkin. Quvonarlisi, ish o'rnlari yerning o'zida tashkil etilayotir. — Yaqindagina mahallaga yondosh binoda yetakchi tadbirkorlarimizdan birining



Kambag'allikdan farovonlik sari

tashabbusi bilan tikuvchilik sexi ishga tushdi, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Akmal Shoyimov. — Sexning o'zida o'quv kursi ochilib, ishga talabgorlar o'qitildi. Hozir o'ttizdan ortiq xotin-qiz ishga qabul qilingan. Asosan tibbiyot xodimlari uchun maxsus kiyim tikishadi. O'lis hudud bo'lgani bois, yaqin manzilda ishlab chiqarish korxonalari bo'lmagan. Tikuv sexi, birinchi navbatda, kam ta'minlangan oila vakillarini band qilishga e'tibor qaratildi. — Mazkur kichik korxonaning ochilishi ayollar uchun ancha qulaylik tug'dirdi. Ular ish o'rni ega bo'ldi, ishga qatnash uchun biror texnikadan foydalanishga ehtiyoj yo'q.

— Turmush o'rtog'im birinchi guruh nogironi. Farzandlarim hali yosh. Faqatgina erimning nafaqasiga bir amallab kun ko'radik, — deydi Gulnoza Allaberdiyeva. — Bu yerga ishga taklif etishgani yaxshi bo'ldi. Tikuvchilik tajribam borligi uchun darhol ishni boshlab yubordim. Endilikda oylik olib, ro'z'orga nafim tegadigan bo'ldi. Turmushimiz yaxshilandi. O'zi ancha yillardan buyon biror korxonada ishlashni orzu qilardim. Afsuski, shu vaqtda qadar buning iloji bo'lmadi. Oilada yetishmovchilik bo'lib qolgan kezar sabrli bo'lishga harakat qildim. Bugun ishliman, muammolarimiz ham kamaydi.

Akmal Shoyimovning ta'kidlashicha, mahalla drayveri ilgari chorvachilik bo'lgan. Hozir qurutchilik ham keng ommalashmog'da. Xususan, shu yo'nalishda o'ttizdan ortiq xonadon mashg'ul. Bugun mahallada deyarli bekor o'tirgan uch bekasini uchratish mushkul. — Ilgari bittagina sigirimiz bo'lardi. Shuning sutini qatib qilib, ro'z'ordan ortirganimizni qurut qildirdik. Ammo sotish uchun emas, shahardagi qarindoshlar uchun edi, — deydi Xursanoy momo Eshqulova. — Ikki yildan buyon qurut tayyorlab, sotadigan bo'ldik. Hozir uch kelinim, o'zim uyda o'tirib, qurut qilamiz. O'g'illarim qishloq bozorlaridan qatib sotib

olib keladi. Tayyor mahsulotimizni xaridorlarga yetkazib beradi. Oilaviy bandimiz, daromadimiz yaxshi. Muhimi, bekor o'tirganimiz yo'q. Mehnati og'ir emas. Alohida so'ralib qilib olganmiz. Oftobda quritib, idishlarga joylaymiz. Bir oyda bir tonnagacha qurut chiqaryapmiz.

Shahzod Normengliyev ham bugun qurutchilikdan yuqori daromad olmog'da. Mahalladagi 10 xotin-qizni ishga olib, oyiga 4 tonnagacha qurut tayyorlab sotadi.

— Atrorfimizdagi qishloqlarda aholi asosan chorvachilik bilan shug'ullanadi. Har kuni deyarli barcha xonadonda sigir sog'iladi. Qatig'ini bozorga olib chiqishadi, — deydi Shahzod Normengliyev. — Shu paytda qadar xayolimizga kelmagan ekan. Izlagan kishi imkon topar. Hozir bozorga qatib olib borganlar bilan kelishib, sotib olaymiz. Undan qurut tayyorlab, kilosini 80-90 ming so'mdan sotamiz. Talab yuqorilganda gohida ulgurilmay qolamiz ham. Ishchilarimiz qo'li-qo'lga tegmay mehnat qiladi. Xaridorlar nafaqat viloyatimizdan, balki vodiyan, Samarqand, Jizzax, hattoki Xorazmdan ham bor. Eng avvalo, mahsulotimiz sifatiga e'tibor qaratganmiz. Shu sabab doim bozorimiz chaqqon.

Boshida "mahalla yetiligi" yordami bilan imtiyozli kredit olgandim. Shuning evaziga ish o'rnlari tashkil qildik. Kelgusida tarmog'imizni yanada kengaytirib, ishlab chiqarish hajmini oshirish niyatimiz bor. Shu vaqtda qadar yuklarimizni tashishga qiyonalib kelardik. Joriy yil boshida yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan mahallamizga imtiyozli kredit asosida 14 dona "Damas labo" mashinasi berildi. Bu esa ishimizni ancha osonlashtirdi. Endilikda yuklarimiz bemaol tarqatilyapti. Natijada mahallamizning 14 nafar yoshi o'z-o'zini band qildi.

Ilgari og'ir toifaga kiritilgan Yangiobod bugun butunlay yangi qiyofaga kirmog'da. Aholining turmush tarzi yaxshilandi, hayotdan roziligini ortmog'da. Sirasini aytganda, aholi maqsad sari dadil odimlamog'da.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Til bilgan – el biladi

O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI – MILLIY YUKSALISH POYDEVORI SIFATIDA KO'RILADI

Bugungi global jarayonlar har bir mamlakatning jahon miqosida ham iqtisodiy, ham ijtimoiy integratsiyalashuvi masalasi naqadar muhim ekanini namoyish etmoqda. Bu, o'z o'rnida, raqobatbardosh malakali kadrlar zaxirasini yaratishga borib taqaladi. Shu ma'noda, yangi O'zbekistonda ta'lim sohasida kechayotgan o'zgarishlar, ayniqsa, xorijiy tillarni o'rgatishga berilayotgan e'tibor bu boradagi islohotlarning eng muhim jarayoni sanaladi.



USHBU MAQOLANI
QORAQAL POQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida umumiy o'rta ta'lim muassasalariga jalb etilgan xorijiy mutaxassislar sonini 2 ming nafarga yetkazish, xorijiy mutaxassislarni jalb etishda ularning amaliy tajribasi, pedagogik mahorati va mahalliy muhitga moslashish qobiliyatiga alohida e'tibor qaratish vazifasi keltirilgan. Ayni paytda yurtimizdagi 883 maktabda 1443 nafar xorijiy til egasi o'quvchilarga tahsil berilayotgan. Buning natijasida o'tgan yillar davomida o'quvchilarning xorijiy til bilish darajasi sezilarli o'sdi, xususan, til bilish sertifikatiga ega maktab o'quvchilari soni 2026-yilda 40 ming 566 nafarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2021-yildagiga (10 ming 960 nafar) nisbatan 3,7 barobar o'sdi. 2023/2024-o'quv yilidan boshlab maktablarda ikkita xorijiy tilga o'rgatish amaliyoti yo'lga qo'yilib, bugungi kunda bunday turdagi maktablar soni 420 taga yetkazildi. Ikkinchi xorijiy til sifatida tanlangan ingliz, nemis, fransuz, koreys, yapon va xitoy tillari bo'yicha o'quv dasturlari yaratildi. Maktablarda chet tili fanini o'qitish sifatini yanada yaxshilash maqsadida Toshkent shahrida “Kelajak uchun xorijiy til” loyihasi amalga oshirilmog'ani.

Maktablarga jalb etilgan xorijiy mutaxassislar o'quvchilarga chet tili sifati va samarali o'rgatish imkonini kengaytirmoqda. Biz ularning ayrimlari bilan shubhatlashdik.

Jeyms MORGAN, Chilonzor tumanidagi 168-maktabning ingliz tili o'qituvchisi (AQSH):

— O'zbekistonda ingliz tili o'qitish imkoniyati haqida eshitganimda, bu men va turmush o'rtog'im uchun ajoyib imkoniyat ekanini his qildik. Rostini aytaman, boshida bir oz hayajonda edik. Lekin mamlakatimizning odamlari mehrlari va saxiy ekan. Yordam berishni xohlaydi. Masalan, taksi haydovchilariga AQSHdan ekanimiz, Toshkentda umumiy o'rta ta'lim maktabida ingliz tilidan dars berishimizni aytganimizda hurmat bilan munosabat bo'ladi. Bunday samimiy munosabat bizni chinakam hayratda qoldirdi. Shuningdek, O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi mustahkam va ijobiy aloqalar biz uchun ham nihoyatda qadrlidi. Yuqori sinf o'quvchilariga dars o'tish zavqlidir — ular diqqat bilan tinglaydi, darsda faol ishtirok etadi, ingliz tilida gapirishga guvoh bo'ldim. Bu bizni hayajonga soladi. Maqsadim kitobni oldindan o'qitish emas, balki ularning ichki “uchqun”ni topishga yordam berishdir. O'quvchi ingliz tilini shunchaki boshqa fan sifatida ko'rishni to'xtatib, uni yangi imkoniyatlarga olib boradigan ko'priklarni o'rnatib boshlaganda, butun xulq-atvori o'zgaradi. Befarqlikdan faol



ko'rib xursand bo'laman. Ular ulg'aygan sari umumiy darajasi ham o'sib borishiga ishonchim komil. O'zbekistonga ko'proq sayyohlar va ingliz tilida so'zlashuvchi odamlar kelishi bilan muhitning o'zi o'rganishni tezlashtiradi. Dastlab ingliz tiliga unchalik qiziqmagan ko'plab o'quvchilarning qiziqishi keyinchalik oshib borganiga guvoh bo'ldim. Bu bizni hayajonga soladi. Maqsadim kitobni oldindan o'qitish emas, balki ularning ichki “uchqun”ni topishga yordam berishdir. O'quvchi ingliz tilini shunchaki boshqa fan sifatida ko'rishni to'xtatib, uni yangi imkoniyatlarga olib boradigan ko'priklarni o'rnatib boshlaganda, butun xulq-atvori o'zgaradi. Befarqlikdan faol

ishtirokka o'tish biz har kuni ko'radigan muvaffaqiyatli hikoyadir. O'zbekiston yuksak sifatlil ta'lim tizimiga intilayotganini ko'raman. Bolalarga yaxshi o'qituvchilar, sifatlil darslar va o'z salohiyatini to'liq ro'yog'ba chiqarish imkoniyati berilayotganini his qilyapman — bu esa meni ilhomlantiradi. Shuningdek, bu yerdagi hamkasblarim yangi yondashuvlarni sinab ko'rishga, ayniqsa, ingliz tili bo'yicha ochiq ekanini ko'raman. Ular xorijiy tili bilish juda muhimligini yaxshi tushunadi. Mahalliy o'qituvchilar an'anaviy yondashuvni afzal ko'radi va o'quv dasturiga qat'iy rioya qiladi, shuning uchun biz darslik mashqlarini birga bajaramiz. Ammo men o'quvchilarning ko'proq faol ishtiroki va bevosita muloqotini joriy etishga harakat qilaman. O'quvchilarga gapirish imkoniyatini beraman, ularga ingliz tilini nafaqat o'rganish, balki ehsitish va qo'llash uchun sharoit yaratishga e'tibor qarataman. Hech bir tizim, ayniqsa, bunday katta dastur amalga oshirilayotganda, noaniqliklardan xoli emas. Men uchun hukumatning ta'limga sarmoya kiritishi orqali o'z xalqining hayotini yaxshilashga bo'lgan aniq istagi muhim ahamiyatga ega. Bu O'zbekiston rahbariyati haqida ko'p narsani anglatadi, ular ta'lim tizimini milliy yuksalish poydevori sifatida ko'radi. Biz shu sa'y-harakatlarning bir qismi bo'lganimizdan chinakam faxrlanamiz.



Oleng KING, Chilonzor tumanidagi 202-maktabning ingliz tili o'qituvchisi (KANADA):

— Ilgari Qirg'iziston va Qozog'istonda dars berganman. Shu ikki mamlakatda bo'lgan davrimda O'zbekiston haqida ko'p narsani bilib oldim. E'zozlaganlarim — madaniyat, an'analar, taom — O'zbekistonda ildiz otganini angladim. Toshkent oshi, fotolarda ko'rgan nafis me'morlik, go'zal atlas to'qimalar — Markaziy Osiyoda meni hayratga soladigan ko'p narsaning asli O'zbekistonda ekan. Bu qiziqish vaqti o'tishi bilan ortib bordi va bu yerga kelib

dars berish imkoniyati tug'ilganda, jon-jon deb otlandim. Dastlabki kunlardan boshlab O'zbekistonda iliqlik va samimiy munosabotni his qildim. Notanish odamlarning do'stga aylanishi qanchalik oson ekanidan chinakam hayratda qoldim. Ko'chada bir oz adashib yurgan yoki inglizcha gaplashgan vaqtlarimda ham ko'plab odamlar befarq emasligi, mehribon ekanini his qildim. Ayniqsa, Ramazon oyida uch oila meni birga iftorlikka taklif qildi. Bu chinakam go'zal qadriyat edi. Bolalarga juda katta quvvat va ishtiyoq ko'raman. Shu bilan birga, ko'plab o'quvchilar dush keladigan muhim qiyinchilikni ham sezaman — bu o'ziga ishonch. Aksariyat o'quvchilar gapirish va mashq qilish imkoniyatini xohlaydi, ular o'rganish, rivojlanishda davom etmoqda. Biroq ularning ko'pchiligi o'rganishni — so'zlar, jumlar, egallagan ko'nikmalarini amalda qo'llashda o'ziga ishonchsizlik bilan kurashmoqda. Ular juda ko'p ma'lumot berilmog'ani va barchasini birga jamlash qiyin. Ammo chinakam harakat qilayotgan ko'plab o'quvchilarni ko'ryapman va ularning sa'y-harakatiga katta hurmat bilan qarayman. Men o'quvchilarning asosiy usullardan biri — o'quvchilarni guruhlarga bo'lish va ijtifoqlikda ishlash. Bu nutq amaliyotini oshirish va tanqid qilishni rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Markazlashgan yondashuvdan ko'ra, o'quvchilarga bir-biri bilan muloqot qilish, ingliz tilida gapirganlarni ehsitish va uni tabiiy, bosimdan xoli muhitda qo'llash uchun ko'proq imkoniyat yaratishga harakat qilaman.

Bilol ATIF, Mirobod tumanidagi 158-maktabning ingliz tili o'qituvchisi (TURKIYA):

— Bu yerga kelishdan oldin deyarli o'n besh yil davomida xususiy xalqaro maktablar va til markazlarida ishlagan edim. 2023-yilda O'zbekistonda xorijiy o'qituvchilarni davlat maktablariga jalb qilish bo'yicha tashabbus haqida birinchi marta eshitdim. Bu tijorat loyihasi emas edi va meni aynan shu omil ta'lim dasturiga jalb qildi. Shu xayrli tashabbusning bir qismi bo'lishni istadim. O'zbekiston tarixi, Samarqand va Buxoro haqida tasavvurim bor, mintaqaga haqida ko'p o'qigan edim. Shu sabab mamlakatimizga hech ikkilanmay otlandim. Minglab o'quvchilarni o'qish tekin bo'lgan davlat maktablarida ishlash uchun mamlakatga jalb qilish katta miqdordagi loyiha, ammo hali mamlakatimizda meni nimisa kutayotgan aniq emasdi. Bu yerdagi birinchi kunim — 2023-yilning 3-sentabriga, birinchi qo'ng'iroq marosimini yaxshi eslayman. O'sha kuni o'quvchilarni chindan hurmat qiladigan va ta'limni qadrlaydigan madaniyatni ko'rdim. Sinfga kirib borarkanman, o'quvchilarning o'midan turishi va “Assalomu alaykum, ustoz” deya hurmat bilan qarshi olishidan hayratga tushdim. Ish faoliyatimda ta'lim va o'quvchilarga shunday chuqur hurmatni birinchi marta ko'rayotgan edim. O'sha lahzada menda bu yerdagi ko'p narsani uddalay olishimga ishonch paydo bo'ldi.



Dastlab ikki-uch oy davomida til to'sig'i mavjud edi va bu maktab tashqarisida bir oz qiyinchilik tug'dirdi. Ammo hamkasb o'qituvchilar va maktab direktori menga xuddi oilamdek bo'lib qoldi. O'zbek o'quvchilari allaqachon ikki tilida gaplasha oladi. Shuning uchun ingliz tilini qo'shimcha til sifatida o'rganish ular uchun men dars bergan boshqa mamlakatlardagi o'quvchilarga nisbatan unchalik katta muammo emas. Bolalarning salohiyati ancha yuqori, eng muhimi, ular til o'rganishni yaxshi ko'radi. Har kuni bolalarning maktabga yangi savollar bilan kelayotganini ko'raman. Ular madaniyat, tarix, boshqa mamlakatlar, ingliz tili haqida so'raydi. Mashq

va muloqot qilishni xohlaydi. Texnologiya va ijtimoiy tarmoqlar orqali o'g'il-qizlar global dunyo bilan tanishib bormoqda. Shogirdlarim o'sha dunyoning bir qismi bo'lish uchun ingliz tili zarurligini tushunadi, bu ularni rag'batlantiradi. Dastavval men uchragan eng katta qiyinchiliklardan biri bir sinfda turli darajadagi o'quvchilar tahsil olishi edi. Ularning bir qismi ilg'or, bir qismi boshlang'ich darajada, ammo hammasi birga ta'lim oladi. Bunday aralash guruh uchun bitta usuldan foydalanib bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilarni o'z o'rganishlarini boshqarishga va asta-sekin umumiy darajaga erishishga rag'batlantirishga harakat qiladigan interaktiv vositalardan foydalandim. Shuningdek, audio-vizual kontent orqali yaxshi o'rganadigan o'quvchilar uchun video va tinglash materiallarini qo'lladim. Darslarni o'yin orqali ham o'rganamiz. Bu o'quvchilar uchun o'z darajasida o'rganishni, biz uchun o'qitishni osonlashtiradi. Texnologiyadan keng foydalanamiz — test, taqdimot asosidagi darslar va birgalikdagi loyihalar. Men dars beradigan 7-11-sinf o'quvchilarning taxminan sakkon-to'qson foizi IELTS yoki CEFR kabi xalqaro tan olingan sertifikatlarini qo'lga kiritdi. Ammo o'qituvchi sifatida meni eng quvonitiradigan natija boshqacha. Qo'l ko'tarishdan uyalgan o'quvchilarni eslayman. Uch yil ichida o'sha o'quvchilar ingliz tilida erkin gaplashish darajasiga yetdi. To'g'ri, ular tilni hali mukammal bilmas, ammo o'ziga ishonchi ortgan. Bolalar qo'lga kiritadigan B2 yoki C1 sertifikati meni g'ururlantiradigan natija.



Serjio REPOLLO, Mirobod tumanidagi 214-maktabning ingliz tili o'qituvchisi (FILIPPIN):

— Bu yerga kelgungimda qadar O'zbekiston haqida hech narsa bilmas edim. Internetda Amir Temur va Toshkent haqidagi videolarga ko'zim tushdi. Buyuk ipak yo'lida joylashgan mamlakatimiz, Xiva va Samarqand kabi qadimiy

shaharlar haqidagi hikoyalar meni hayratda qoldirdi va men O'zbekistondagi ta'lim dasturlari haqida eshitib, hech ikkilanmay mamlakatimizga yo'l oldim. Xalqimiz juda mehribon, ko'makka shay, iliq munosabatta bo'ladi. Bizda o'xshash madaniyat bor, chunki Osiyoda yashaymiz. Men turli joylarda bo'lganman, ammo O'zbekistonga boshqa mamlakatlarga o'xshab moslashish muammosiga duch kelmadim. O'qitishda ham, o'rganishda ham e'tiborga olish kerak bo'lgan juda ko'p jihatar bor, chunki ta'lim dasturi yangi. O'tgan vaqt bizni natijaga tobora yaqinlashtirib bordi. Bugun o'quvchilarni erishayotgan yutuqlar quvonarli. Ular avvalgidan shijoqliroq, o'rganishga yanada ochiq. Bolalar chet elda o'qishni, kelajakda yaxshi yashash uchun hozirdan poydevor qurishni xohlaydi. Nafaqat o'zlar, balki oilalari va kelajak uchun muvaffaqiyatga erishishga intiladi. Ta'lim sifati hozir yaxshilanmoqda. O'quvchilar maktabga borishga rag'batlantirilgan. O'qish, bilim olishga intilayotgan bolalar maqsad yo'lida tinimsiz harakat qilmoqda. Dars o'tishda aralash metodni qo'llayman, chunki bitta sinfda turli bilim darajasiga ega o'quvchilar bor. O'qituvchilardan o'zgarish katalizatori bo'lish kutiladi. Biz o'quvchilarni o'ziga xos tarzda noyob deb hisoblaymiz,

lekin ularning xarakteri, kayfiyati va munosabati sinf dinamikasini rag'batlantiradigan omil bo'lishi mumkin. Biroq bu qiyinchiliklar ham meni o'qitishda yanada ijodkorroq, rag'batlantirilgan, moslashuvchan va mulohazali bo'lishga undadi. Sinfda qo'llaydigan metodologiya strategiya va pedagogika aralash metodidir. Bu o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatli natijani ta'minlashi kerak. Darsim faqat grammatikani o'rgatish bilan cheklanib qolmaydi. Ularga adabiyotni ko'proq o'qitaman. IELTSga tayyorlayman. Jummalarni qanday ishlatishni, insho yozishni o'rgataman. O'quvchilarni qulaylik zonasidan uzoqroqqa olib chiqishga harakat qilaman. Bu — mening uslubim. Shunda ular mustaqil harakatlanib boshlaydi, fikrlay oladi. Boshida bunday yondashuv ularga yoqmaydi, lekin endi ular dunyo bilan yolg'iz, yuzma-yuz ekanini to'liq tushunib oldi. Bolalar hozir o'z kelajagini shakllantiradigan, erangi kunini yaratishga mas'ul va javobgar bo'lgan insonlardir. Ular o'rganish, bilim barcha muvaffaqiyat kaliti ekanini biladi.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri
Risolat MADDIYEVA yozib oldi.

ILMIY LABORATORIYALAR UCHUN MUHIM BOSQICH

Yangilangan tartibning ustunligi nimada?

Qaror va ijro

Hayotimizni o'zgartiradigan, jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan ixtirolar, innovatsion g'oyalar, avvalo, ilmiy izlanishlar qilinadigan laboratoriyalarda shakllanadi. Chunki aynan shu muhitda yangi fikrlar tajriba orqali sinovdan o'tkaziladi, nazariy bilimlar amaliyotga tatbiq etiladi. Biroq laboratoriyalarda yetarlicha zamonaviy asbob-uskunalar mavjud bo'lmasa, ilmiy tadqiqotlar samaradorligi pasayadi, yaratilgan g'oyalarni to'liq sinovdan o'tkazish imkoniyati cheklanadi. Shu bois, ilmiy infratuzilmani mustahkamlash, laboratoriyalarni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash innovatsion rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.



Jonibek TAVAKALOV, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ijro etuvchi direktori

ishlab chiqish va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash belgilangan tartibda Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni

qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan bo'lishi ko'zda tutilgan. Endi laboratoriya uskunalariga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, buyurtma berish va ko'rib chiqish yagona elektron platforma orqali amalga oshiriladi. Bu esa inson omili ta'sirini kamaytirib, shaffoflikni oshiradi, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. Natijada ilmiy tashkilotlar o'z tadqiqotlarini ortiqcha byurokratik to'siqsiz davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, xarid tizimi moslashuvchan shaklga o'tkazildi. Oldin buyurtmachi tashkilot loyihalar portfelini uch yilda bir marotaba yuqori turuvchi tashkilotga taqdim etishi mumkin edi. Keyin esa ular hujjatlarni vazirlikka yuboradi, undan keyin ekspert guruhi tomonidan ko'rib chiqilar va ma'qullangachgina xarid jarayoniga kirishilari edi. Bu esa amalda laboratoriyalar zarur uskunani kutib vaqt ketkazishga olib keladi. Natijada qaysidir tajriba, ilmiy jarayon ko'zilib ketaverardi. Vaholanki, ilmiy tadqiqotlar vaqt bilan chambarchas bog'liq. Kechikish natijadorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Endi esa ilmiy faoliyat olib boruvchi tashkilotlarda buyurtmalari bo'yicha xaridni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Bunda

yirik xaridlar markazlashgan tartibda amalga oshiriladi. Markazlashgan davlat xaridlarini amalga oshirish uchun Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan har yili yanvar oyida ilmiy faoliyat yo'nalishlari uchun zarur asbob-uskunalar, sarflov materiallari va butlovchi qismlarni xarid qilish bo'yicha komissiya tashkil etiladi. Xaridlar eng yaxshi takliflarni tanlash asosida bo'ladi. Kichik hajmdagi zarur uskunalar xarid qilish esa ilmiy tashkilotlarning maxsus axborot tizimi orqali yuborilgan arizasiga asosan amalga oshiriladi. Shuningdek, qaror asosida ilmiy faoliyatning real ehtiyojlariga asoslangan rejalashtirish tizimi joriy etildi. Endi jihozlash jarayoni umumiy rejalashtirish asosida emas, balki aniqlashtirilgan ilmiy loyihalar, dissertatsiyalar va tadqiqot yo'nalishlari ehtiyojidan kelib chiqib shakllantiriladi. Bu esa ilmiy infratuzilmani bevosita ilmiy natijadorlik bilan bog'laydi. Yana bir muhim jihat, ilmiy tashabbusning pastdan yuqoriga qarab shakllanishi bo'ldi. Endi laboratoriya uskunalariga bo'lgan ehtiyoj tashabbusi loyiha rahbarlari yoki ilmiy bo'linalar tomonidan ilgari surilishi mumkin. Bu ilmiy jarayonni markazdan emas, balki tadqiqotning o'zi orqali boshqarish imkonini yaratib, ilmiy xodimlar faolligini oshiradi. Ularni qaror qabul qilish jarayoniga

bevosita jalb qiladi va amaliy ehtiyojlarni shakllantiradi. Yangi tizim faqat texnik jihozlash bilan cheklanib qolmaydi, inson kapitalini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Aytaylik, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda xarid qilinadigan laboratoriya asbob-uskunalaridan foydalanish bo'yicha malakali xodimlar bo'lmasa yoki xodimlar malakasini oshirish zarurati tug'olsa, ularni ikki haftagacha yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga ilmiy stajirovkaga yuborish mumkin. Bu o'zgarish alohida ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy uskunalar o'z-o'zidan natija bera olmaydi — uni to'g'ri ishlatish zarurati muvaffaqiyatli natijani ta'minlashi kerak. Yangi qaror aynan shu muammoni ham qamrab olgani bilan muhim. Bu esa ilmiy infratuzilma va ilmiy salohiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Umuman olganda, yangi tartib ilmiy laboratoriyalarni jihozlashga oid oddiy ta'minot modelidan zamonaviy boshqaruv modeliga o'tishni anglatadi. U shaffoflikni oshiradi, ilmiy tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi, xarid jarayonlarini tezlashtiradi, asosiysi, ilmiy natijadorlikni markaziy maqsadga aylantiradi. Endi laboratoriyalarga faqat uskunalar jamlanmasi emas, balki ilmiy natija yaratiladigan samarali ektotizm sifatida qaralmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ilmiy ishlanmalar sifati oshishiga, innovatsion g'oyalarning tezroq amaliyotga joriy etilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, yangi tartib orqali ilmiy tashkilotlarda mas'uliyat va mustaqillik muvozanati ta'minlanadi: bir tomondan, ular keng imkoniyatlar yaratiladi, ikkinchi tomondan, natija uchun javobgarlik kuchayadi. Bu esa butun tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi global raqobat sharoitida ilmiy natijadorlik ko'p jihadan aynan laboratoriya imkoniyatlari bilan belgilanmoqda. Qaysi davlat ilmiy infratuzilmani tezroq va samaraliroq yangilasa, o'sha mamlakat innovatsiyalar pog'yasida ustunlikka ega bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, laboratoriyalarni jihozlash tartibini takomillashtirish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 17-fevraldagi “Ilmiy faoliyat sohasidagi tashkilotlarni laboratoriya asbob-uskunalar, sarflov materiallari va butlovchi qismlar bilan ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizomni

tasdiqlash haqida”gi qarori asosida yangi tartib joriy etildi. Agar ilgari asosiy e'tibor laboratoriyalarni jihozlashning o'ziga qaratilgan bo'lsa, endi ustuvorlik ilmiy faoliyatni samarali tashkil etish, ehtiyojdan kelib chiqib boshqarish va natijaga xizmat qiluvchi infratuzilmani shakllantirishga berilmog'ani. Qarorning eng muhim jihatlardan biri jarayonlarning raqamlashtirilgan boshqaruv tizimiga o'tkazilishidir. Ya'ni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga Ilmiy laboratoriya asbob-uskunalar yagona elektron platformasini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Maxsus axborot tizimini

G'ALABA BOG'I

G'aroyib suhbatdosh

MATONAT, SADOQAT VA QADR TIMSOLI

Bugun yurtimizda qahramon ajdodlarimiz hayoti va faoliyati, mardligi yuqori matonati chuqur o'rganish va targ'ib etish, yosh avlodni ularning shonli an'analari ruhida tarbiyalashga qaratilgan xayrli ishlarga guvoh bo'lyapmiz, ozmi-ko'pmi o'zimiz ham jarayonda ishtirok etyapmiz. Poytaxtimizda bunyod etilgan G'alaba bog'i, hududlardagi "Vatanparvar" majmualari kabi tabarruk maskanlar qisqa muddatda xalqimiz va chet ellik mehmonlar uchun qutlug' ziyoratgohlarga aylandi.

Darvoqe, G'alaba bog'i... Tez-tez ushbu manzil tomon yo'lim tushadi. Majmuaning bunyod bo'lishi, takomillashishi va to'laqonli kasb etishi ko'z oldimda kechdi. Bu yerga har kuni turli yoshdagi odamlar, navqiron avlod vakillari, harbiylar tashrif buyuradi. 9-may — Xotira va qadrlash kuni yaqinlashgani sayin so'lim maskanga borqim, G'ALABA BOG'I bilan xayolan suhbatlashqim kelaverdi.

— Mazkur sanani ko'tarinki shukuh bilan bayram qilsak-da, ammo tarixning mash'uri kunlari xotiralarimizda chaxravaveradi. G'alabaga eltuvchi yo'lining dahshati, yo'qotishlari qalblarimizni qanchalar ezib, azob bersa, xalqimizning bir maqsad yo'lida jipslashib ko'rsatgan matonati unutishga shunchalar haqqimiz yo'q ekanini his qilaveramiz.

— Xotira va qadrlash kuni boshqacha bayram. Urush ko'rgan odamlar uchun qadrdon oilasi va xalqi ardog'ida bo'lish, yurtga kerakli ekanini his etish ularni yashashga undayveradi. Mehr-e'tibor, bir og'iz shirin so'zga mushtiq keksalar uchun bundan ortiq xursandlik yo'q, aslida. Sana munosabati bilan tashkil etiladigan davomli tadbirlar esa faxriylarni behad mamnun etadi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga ko'rsatilayotgan e'tibor va rag'batning chek-chegarasi yo'q.


Ikkinchi jahon urushida jasorat ko'rsatgan va o'sha mashaqqatli davrda front ortida og'ir hamda halol mehnati bilan metin matonati namoyish etgan ota-bobolarimiz bizga hayotning oddiy, ammo purhikmat bir haqiqatini anglatib, hamisha bunday duo qiladi: "Urush bo'lmasin! Urushni biz ko'rdik, keyingi avlod vakillari ko'rmasin, ilohim".

Toshkent shahrida O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan bunyod etildim. G'alaba bog'i majmuasi ana shu o'zbekona falsafa, ta'bir joiz bo'lsa, xalqona siyosatning amaldagi yorqin natijasidir.

Bunday bunyodkorona yondashuv yangi O'zbekistonning shiddatli islohotlariga xos muhim xususiyat hamdir.

— Bilsang, 2010-yillardan keyin bu yer odamlar nigohidan pana hududga aylanib qolgan, tuman hokimligi binosi ham ko'zdan o'tayotib, ichkariroqda ma'muriy bino borligini birov bilar, birov bilmas darajada ko'rimsiz joy sifatida yodimizda qolgan.

— Men bunyod etilib, eshiklarim poytaxtliklar va mehmonlar uchun keng ochilganiga 6 yil to'ldi. G'alaba bog'i degan nomim o'z mohiyati bilan xalqimizning



olib, ushbu g'oyani ta'sirchan badiiy-monumental usullar, innovatsion yechimlar asosida ifoda etishga alohida ahamiyat berdi. Muntazam ravishda bu boradagi loyihalar tatbiq etilishini nazoratga oldi. Mendagi murakkab kompozitsiyalardan tortib, hatto tarhdagi kichik detallargacha Prezident

o'zbek xalqisiz aslo tasavvur qilib bo'lmaydi. Eng avval yangi tarixiy ma'lumotlar va har jihatdan puxta ishlangan loyihalar asosida mening tarkibimda "Matonat madhiyasi", "Mangu jasorat", "Ko'z yoshi" monumentlari, "Shon-sharaf" muzeyi bunyod etildi. O'zbek xalqining qonli janglardagi mardligini, front ortidagi mashaqqatli mehnati va fidoyiligini aks ettirishga bag'ishlangan keng ko'lamlari tarixiy-badiiy ekspozitsiyalar yaratildi.

Ana shunday ezu ishlarining davomi sifatida o'tgan yili bag'rim yana bir majmua bilan boyidi: hududda ona yurt qalqonlari sharafiga "Millat fidoyilari" majmuasi barpo etildi. Yodgorlik mustaqillik yillarida yurt himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlari xotirasiga bag'ishlandi. Sana arafasida G'alaba bog'iga Prezident Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurdi. Shu yerda marhum harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan uchrashdi, ularga chuqur hurmatini bildirdi.

"Ishonchim komil, yuzlab marhum bahodir harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining nomlari zarhal harflar bilan muhrlab qo'yilgan ushbu muhtasham badiiy obida el-yurtimiz chin dildan intiladigan va faxrlanadigan yana bir mo'tabar maskan bo'lib qoladi...

Har yili bu yerga kelib, Ikkinchi jahon urushidagi yo'qotishlarni eslaymiz. Endi mustaqillik fidoyilariga bag'ishlangan ushbu majmuani tashkil qilganimiz xayrli ish bo'ldi. Chunki ular ham milliy qahramonlarimiz. Shu jihatdan, bu maydonning ma'naviy ahamiyati katta. Bu ham o'zlikni anglash, bu ham inson qadri", dedi davlatimiz rahbari.

Yuqoridan qaraganda majmua O'zbekiston bayrog'idagi yarim oy va o'n ikki yulduz shaklida namoyon bo'ladi. Qariyb ikki metrli yulduzlarning qirralari bitiktosh vazifasini ham o'taydi. Ularning yon taraflariga 196 nafar qahramon nomi zarhal harflar bilan yozilgan. Bu bitiklar yoniga monitorlar o'rnatilgan bo'lib, millat fidoyilari to'g'risida ma'lumotlar foto va videolar orqali namoyish etib boriladi.

— Sen bilan ilk bor tanishgan paytlarim shuurimda sezilarli o'zgarishlarni his qilganman. Tafakkurim yangi ma'lumotlar bilan boyigani edi. Ya'ni kim va qaysi yoshda bo'lmasin, sening huzuringdan tarix lahzalari, urush manzaralari,

Ikkinchi jahon urushi haqiqatlaridan yetarli darajada voqif bo'ladi...

— Men qiziqib ko'rdim: dunyoning 20 dan ortiq mamlakatida menga o'xshash bog' va muzeylar tashkil etilgan. Ammo yangi O'zbekistonning G'alaba bog'i Rossiya, Belarus, Ukraina, Avstriya, Polsha, AQSH, Isroil kabi boshqa bir qancha davlatlardagi ulkan memorial komplekslarga mutlaqo o'xshamaydi. Asosiy farqli jihatlari shuki, xorijiy mamlakatlarning birotdasidagi memorial majmuada o'zbek xalqining Ikkinchi jahon urushi jangohlaridagi jasorati va front ortidagi matonati Toshkentda yaxit majmua tarzida bunyod etilgan G'alaba bog'idagi singari keng ko'lamda, haqqoniy va adolatli ravishda ko'rsatib berilmagan.

Bu Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan necha minglab yurtdoshlar xotirasini yod etish, olovli janglardan omon qaytgan bobolarimizga, og'ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, mashaqqatli damlarda ham o'zligini aslo yo'qotmagan, iymoni butun yurtdoshlarimizga hurmat-ehrom va e'zoz ko'rsatish O'zbekistonda oliy darajadagi milliy qadriyatga va davlat siyosatiga aylanganing o'ziga xos ifodasidir.

O'zbekiston xalqi Ikkinchi jahon urushida buyuk g'alabani ta'minlashga, hech shubhasiz, ulkan hissa qo'shgan. Fashizmga qarshi qonli janglarda o'sha paytda 6 million 800 mingni tashkil etgan aholimizning qariyb 2 million nafari ishtirok etgan. Shundan 540 mingga yaqini halok bo'lgan, 158 ming nafari bedarak yo'qolgan, 50 mingdan ortig'i konslagerlarda mislsiz qiynoq va azoblar tufayli halok bo'lgan, 60 mingdan ziyodi nogiron bo'lib qaytgan. O'zbekistonlik askar va ofitserlardan 214 mingga yaqini jangovar orden va medallar bilan mukofotlangani ularning jasoratidan dalolat beradi.

Boqqa kiriladigan asosiy yo'lining ikki chetidan 10 ta barelyef, ya'ni devorga ishlangan bo'rma naqshlar joy olgan. Bu naqshlar o'zbek xalqining 1941-1945-yillardagi urush davridagi jasorati va matonatli hayoti haqida bitilgan o'ziga xos noyob kitobga o'xshaydi. Uning har bir naqshinkor sahifasi hayajonli tasvirlarga boy.

Yodgorlik majmuasining "Urush" hududi qismi himoya xandaqlari (okop, transheyalar), jangovar texnika, qaqshatqich o'tishmalarni aks ettiradigan turli tasvirlardan iborat. Urush qiyofasi tanklar, tanklarga qarshi maxsus metall qurollar, parvozidagi va qalab tushgan samolyotlar timsolida gavdalantirilgan. Ayniqsa, himoya xandaqlarining uchta tank ostida qolgan qismidan o'tayotganda har qanday inson bu "temir sandiq"lar ostida majaq bo'lish tahtidini ich-ichidan his etadi va urushning naqadar dahshatli ekanini yaqqol tasavvur qiladi.

Ikkinchi jahon urushining o'ta dahshatli damlarini ko'rsatib berish uchun "Konslager" yodgorligi bunyod etilgan. Unda 1942-yili Smolenskda qaqshatqich janglarda mardlaracha kurashgan va asirga olinib, fashistlarning Niderlandiyadagi "Amersfort" konslageriga tashlangan 101 nafar o'zbek jangchisining fojiali qismati haqida hikoya qilinadi.

"Shon-sharaf" davlat muzeyiga kirish yo'lagida, ikki tomondagi devorlarda ham rang-barang barelyeflar joylashtirilgan.

Ularda Ikkinchi jahon urushi sahifalari tasvirlangan. Jumladan, "Kuzatish", "Urush", "Front ortida" barelyeflari muzeyga kirish yo'lagining chap tomonida joylashgan. Uzunligi 44 metrli ushbu asarda navqiron o'g'lonlari urushga kuzatayotgan otagonal, o'zbekistonliklarning front ortidagi mashaqqatli mehnati va G'alabaga qo'shgan ulkan hissi o'z aksini topgan.

— Aprel oyi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevga harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, rezerv va xaziradagi ofitserlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, 9-may — Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan axborot berildi. Demak, sanaga bu yil ham tayyorgarlik qizg'in...

— Shunday. Har yili Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi O'zbekistonda tinchlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash, Vatan ozodligi yo'lida qurbon bo'lganlar xotirasini yod etish, bugun oramizda sog'omon yashayotgan urush va mehnat faxriylariga g'amxo'rlik ko'rsatishning yorqin amaliy ifodasidir.

Joriy yilda bayram munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga bir martalik pul mukofoti beriladi. Shuningdek, bu kunda urush qatnashchilari, front orti mehnat faxriylari, keksalar va ustozlarga hurmat-ehrom ko'rsatish, yolg'iz va kam ta'minlangan faxriylarning turar joylarini obodonlashtirish, turli xotira va qadrlash tadbirlari tashkil etiladi.

E'tiborga molik tomoni, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan Vatan fidoyilarining xotirasi ham ulug'lanadi. Ularning oila a'zolariga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatiladi. Ona Vatan tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi yo'lida jon fido qilgan harbiy xizmatchilar mardligi va jasoratini targ'ib qilishga qaratilgan ma'naviy-vatanparvarlik tadbirlari o'tkaziladi. Mamlakat bo'ylab "Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, uch avlod uchrashuvlari, ijodiy kechalar, tanlovlar va ommaviy sport musobaqalari tashkil etiladi.

Xotira va qadrlash tushunchalari tobora dolzarb bo'lib borayotganini yana bir sababi shundaki, insonga mehr ko'rsatish, uni ulug'lash, qadrlash kabi a'mollar bizni globallashayotgan va tez o'zgarib borayotgan murakkab davrning turli tahtidlariga nisbatan sezgir va hushyor bo'lishga, kechagi kun jarohatlaridan saboq chiqarishga undaydi. Bu borada, ayniqsa, buyuk kelajak egalari bo'lmish navqiron avlod zimmasidagi mas'uliyat nihoyatda kattadir.

Inson xotiralar bilan yashaydi. Kechagi kunning mashaqqatlarini eslab, og'ir damlarni bugungi farahbaxsh hayot bilan muqoyasa qilsak, har birimiz ezigulik, yaxshilikni ulug'lashga ko'proq intilishimiz tabiiy. Bundan oldi yil avval poytaxtimizda barpo etilgan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi bu haqiqatni bizga yorqin eslatib turibdi.

Nodir MAHMUDOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-546.
30570 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy